

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”

Filologiya fakulteti dekani

p.f.n. S.Misirov

“ ___ ” _____ 2016 yil

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI FE'LLARDA

MODALLIK MUAMMOLARI

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Filologiya va tillarni
o'qitish(nemis tili)» ta'lim yo'nalishini
bitiruvchi 4-kurs talabasi

Ilyosova Madina Arabjon qizi

Rahbar: f.f.n., dotsent A.Abdullajonov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning ___ -sonli bayonnomasi. « ___ » _____ 2016 yil.

Namangan – 2016

Mavzu: Nemis va o'zbek tillaridagi fe'llarda modallik muammolari

MUNDARIJA:

I. KIRISH.....	3-7
II. ASOSIY QISM	
1-bob. Modallik universal kategoriya sifatida.....	8
1.1. Modallik tushunchasi haqida.....	8-10
1.2. Modallik turlari.....	10-13
1.3. Modallikning ifoda vositalari.....	13-23
2-bob. Nemis tilida modallik kategoriyasini ifodalash usullari.....	23
2.1. Modallik kommunikativ birlik sifatida.....	23-25
2.2. Modallik kategoriyasining tillar misolidagi aksi.....	25-26
2.3. Modallik- gapning semantik komponenti.....	26-43
3-bob. Nemis tili dialogik nutqda modallikni ifodalash usullari va uning o'zbek tiliga berilish imkoniyatlari.....	43
3.1. Voqelikning so'zlovchi yordamida ifodalanishiga ko'ra modal ma'nolar.....	43-44
3.2. Voqelikka qaratilgan munosabatga yondashuvga ko'ra modal ma'nolar.....	44-52
3.3. So'zlovchining voqelikka ishonchlilik darajasiga ko'ra modal ma'nolar.....	52-58
3.4. So'zlovchining his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishiga ko'ra modal ma'nolar.....	58-62
3.5. Subyektning reaksiyasiga ko'ra modal ma'nolar.....	62-68
III. XULOSA.....	68-69
IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilm-fanning barcha sohalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini jadal olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hozirgi kunda chet mamalakatlar bilan hamkorlik aloqalarining kuchayishi, birinchi navbatda ta'lim sohasida tilshunoslikning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Chunki o'zga davlat tilini bilmasdan turib, o'sha davlat bilan aloqa qilish bu qiyin masala. Shuning uchun chet tilini o'rganishni nafaqat maktablarda ham zamonaviy texnologiyalar asosida yangi o'quv qo'llanmalar, darsliklar orqali, ayniqsa nemis va o'zbek tillaridagi grammatik tomonlarni qiyoslab o'rgatilsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlashga hojat yo'q¹.

Hozirgi vaqtda xorijiy til muammolarini ona tili-o'zbek tili masalalari bilan qiyosiy o'rganish, jumladan, nemis va o'zbek tillarida tilning o'zaro munosabatida modallik kategoriyasining leksik-grammatik qo'llanishini qiyosiy tipologik o'rganish, til modalligining qiyosiy-tarixiy davrlarga xos rivojlanish xususiyatlarini ochib berish va ularni bir-biriga bog'lab tahlil qilish, funktsional aspektda «reallik», «istak», «mumkinlik» va «zaruriyat» ma'nolarining morfologik, leksik, sintaktik ifodalanish yo'llarini sodda va qo'shma gaplar misolida batafsil tahlil etish, nemis va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining qo'llanishini yaxlit sistemalashtirilgan holda doalogik nutqqa xos bo'lgan subyektiv modallik vositalari va ularning tarjima imkoniyatlarini ochib berish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Karimov I. A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash ... mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi.,-O'zbekiston ovozi gaz. 18 fevral. №21,2012

Har qanday mavzuni imkon qadar yoritib berish, ilmiy qarashlar bilan boyitish maqsadida bir qancha zamonaviy chet el adabiyotlari, internet ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bir qator bilimli, o'z ishining ustasi hisoblangan professor o'qituvchilarning ilmiy maslahatlari va ularning yaratgan ilmiy ishlaridan beqiyos yordam olinadi. Dunyodagi voqealar, narsalar o'rtasidagi modallik munosabatlarini bilish, fikrlarni asoslash insonning kundalik hayotida va ilmiy izlanishida uchraydigan eng muhim jarayonlardan biridir. Shu jihatdan qaraganda, tildagi modal munosabatlarni ifodalash vositalarini aniqlash va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun juda ahamiyatlidir.

Tilda modallik kategoriyasining tarixiy qo'llanishi va modal fe'llarning turli ma'nolarni ifodalashi, hattoki lisoniy birliklar ham davr o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib va rivojlanib borishi tabiiy hodisadir.

Til bilan mantiqning o'zaro uzviy bog'liqlik masalalari qaytadan rivojlanish bosqichiga o'tib, dolzarb muammoga aylanmoqda. Modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til hodisalaridan biri sanaladi va bu kategoriya ayni bir paytda tilshunoslikning tekshirish obyekti hamdir. Chunki modallik gapning eng muhim, aktual belgisidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Modallik kategoriyasi universal, ya'ni barcha tillarga xos kategoriya bo'lib, u tilshunos olimlarning ko'p yillardan beri diqqat markazida turuvchi asosiy masalalaridan biridir.

Shu o'rinda aytish joizki, tilshunoslikda modallik kategoriyasini ilmiy-nazariy tahlil qilishda turli qarashlar mavjud. Buning asosiy sababi ushbu lingvistik kategoriyaning qo'llanish xususiyati har bir tilda turlicha bo'lib, bir-biriga mos kelmasligidadir. Masalan, tilshunoslikda ko'plab tilshunos olimlar(Sh.Balli, V.Admoni, E.Gulga, A.Bushuy, A.Bondarko, V.Panfilov, N.Shvedova, I.Raspapov, T.Lomtev, V.Vinogradov, F.Palmer, T.Alisova, G.Zolotova, R.Sibagatov, V.Gak., J.Yakubov, O'.Lafasov) modallik kategoriyasining mohiyatini ochib berish bilan birga ushbu lingvistik kategoriyaning har xil til vositalari bilan ifodalanishini va shunga ko'ra ular obyektiv va subyektiv turlarga ajralishini, gap va nutqda modallik eng muhim belgi ekanligini bayon qiladilar.

Hozirgi paytda tilning funktsional xususiyatini o'rganish tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. «Ma'nodan shaklga» qarab boruvchi ilmiy tahlil, - deb yozadi A.V. Bondarko, ma'lum semantik kategoriyaning muayyan maqsadga yo'naltirilganini aniqlash bilan birga mazkur ma'noni ifodalovchi turli til vositalarini qidirib topishga, ayniqsa, grammatik-leksik, grammatik-kontekstual, morfologik, leksik va sintaktik sathlarda erkin ifodalanmagan murakkab til vositalarini namoyish qilishga imkon topadi».

Bitiruv malakaviy ish mavzusi. Mazkur ilmiy ish mavzusi “Nemis tilidagi dialogik nutqda modallik va uning o'zbek tilida berilishi” deb nomlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Nemis tili dialogik nutqida subyektiv modallikni ifodalovchi vositalarning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi, shuningdek, ularni tilda qo'llanilish holatlari, nemis tilidagi subyektiv modallik munosabatlarini ifodalovchi barcha vositalarni aniqlash va ularni tarjima jarayonida o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishining obyeksi. Nemis tili badiiy adabiyotlaridagi faktik til materiallaridan to'plangan nemis tili dialogik nutqidagi subyektiv modallikni ifodalovchi leksik, grammatik (morfologik, sintaktik) vositalarining ma'no xususiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining predmeti nemis tilidagi subyektiv modallikni ifodalab keluvchi modal birliklar va qurilmalar, ya'ni modallikning ifoda vositalari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Nemis va o'zbek tillari modallik tizimini va uning o'ziga xos uslubiy jihatlari o'rganish va ularni og'zaki dialogik nutqda qo'llashning samarali yo'llarini tadqiq qilish, modallik kategoriyasining nutqda qo'llanishini sintaktik tahlil qilish, qiyoslanayotgan ikki tilda modallik kategoriyasining tarjimada berilish imkoniyatlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

- tilshunoslikda modallik masalasini yechish muhim masala ekanligini nazariy manbalardan to'plangan ma'lumotlar asosida yoritib berish;

-nemis va o'zbek tillarida modallikning turlari haqida ma'lumot berish hamda ularni yoritib berish;

-modallikning barcha tillar uchun umumiy hisoblangan ifoda vositalarining mazmun-mohiyatini ochib berish va tahlil qilish;

-nemis tili dialogik nutqidagi subyektiv modallikni ifodalovchi vositalarining o'ziga xosligi va ularning ifodalanishini ko'rib chiqish;

-nemis tilidagi subyektiv modal vositalarning o'zbek tiliga berilish imkoniyatlarini tahlil qilish;

-badiiy asarlardan to'plangan misollar tahlili natijasida yakuniy xulosalarga kelish.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishida asosiy manba nemis yozuvchilarining badiiy asarlaridan olingan misollar bo'lib, tahlil jarayonida nemis yozuvchilari Elke Haydenrayx, Bernd Shro'der, Gyunter de Broyn, Shtefan Svayg, shuningdek nemis adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Lessinglarning asarlari va ularning o'zbek tiliga qilingan tarjimalaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari va usullari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch" va boshqa asrlarida ilm - fanni rivojlantirish, uning dolzarb muammolarini ilmiy tahlil etish to'g'risida aytgan ijtimoiy va falsafiy fikrlari bitiruv malakaviy ishi uchun metodologik asos qilib olindi. Shuningdek, V.V.Vinogradov, V.G.Gak, A.V. Bondarko, J.A. Yakubov va O'. P. Lafasovlarning ilmiy - nazariy fikr va g'oyalariga asoslanildi.

Mavzuni yoritishda distributiv, mantiqiy-semantik, qiyosiy lingvistik, analiz va sintez, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ish yangiligi. Nemis va o'zbek tillari dialogik nutqidagi subyektiv modallik ilk marotaba qiyosiy o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy izlanishlarning natijasida mavzu yuzasidan chuqur bilim va ko'nikmalar hosil

qilindi. Ilmiy ishning nazariy ahamiyati shundaki, undan modallik kategoriyasining tilda tutgan o'rnini yoritish maqsadida nazariy grammatika bo'yicha maxsus kurslarda: « Tilda modallik kategoriyasining munosabati», «Sodda va qo'shma gaplarning modallik xususiyatlari», « Hozirgi zamon nemis va o'zbek tillarida modal fe'llarning qo'llanishi», «Gapda modallik munosabatlari», «Nemis va o'zbek tillarida reallik, istak, mumkinlik va zaruriyat kategoriyalarini ng qo'llanish yo'llari», «Tilshunoslikda morfologik, leksik, sintaktik vositalar xususiyatlari» kabi mavzularni yoritishda foydalanish mumkin. Amaliy ahamiyati esa ushbu mavzular asosida iki tildagi modal vositalarni qiyoslab o'rganish va ularni dialogik nutqda qo'llash uchun o'quv jarayonida (qiyosiy tipologiya va grammatika darslarida) foydalanish, ma'ruzalar o'qish mumkin. Shuningdek, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari yozishda hamda tarjima jarayonlarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ilmiy ish kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 80 sahifa.

Ishning kirish qismida bitiruv malakaviy ishining mavzusi, dolzarbligi, obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqot va tahlil manbalari, tadqiqot metodlari, nazariy va amaliy ahamiyati va tuzilishi haqida so'z yuritildi.

Asosiy qism uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda modallik universal kategoriya sifatida nazariy manbalar asosida o'rganildi, ikkinchi bobda modallik kommunikativ birlik sifatida og'zaki nutqda ifodalanish xususiyatlari ko'rib chiqildi va uchinchi bobda esa badiiy asarlardan olingan misollar asosida nemis tili dialogik nutqidagi subyektiv modallik ifoda vositalarining o'zbek tiliga tarjima imkoniyatlari tahlil qilindi.

Xulosa qismida esa bitiruv malakaviy ishi davomida oldinga qo'yilgan vazifalarga xotima yasalib, yakuniy xulosa bayon qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida prezident asarlari, o'zbek, rus va nemis tilidagi nazariy adabiyotlar, tadqiqiy adabiyotlar va foydalanilgan lug'atlar ro'yhati, shuningdek, internet manbalari va foydalanilgan web-saytlar ko'rsatilgan.

Ilova qismi nemis tili badiiy adabiyotidan tahlil uchun to'plangan misollardan iborat.

1-Bob. MODALLIK UNIVERSIAL KATEGORIYA SIFATIDA.

Hozirgi paytda o'zbek tilshunoslari tarixiy an'analarimizni davom ettirgan holda o'zbek milliy adabiy tilining grammatik qurilishini chuqur va barcha jabxalarda tekshirishga, adabiy tilimizni har tomonlama rivojlantirishga bugun kuch va imkoniyatlarini qaratmoqdalar. Bu boradaga tadqiqotlar esa o'zbek tilshunosligining ravnaqi uchun qo'shilgan ulkan hissadir.

Ilmiy-tadqiqotlardan erishilgan natija va samaralar o'zbek milliy adabiy tilining lingvistik jihatdan yanada taraqqiy qilishi, shu tilda so'zlashuvchilarning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish, ota-bobolarimiz yaratgan hamda meros qilib qoldirgan so'z boyliklaridan keng foydalanish va ularni yanada boyitish, tarixiy adabiy til bilan zamonaviy adabiy tilni bog'lab o'rganish, tarixiy an'analarni saqlash va ularni keyingi hayotga tatbiq etish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda nafaqat ma'lum bir til doirasida, balki bir necha tillar doirasida qiyosiy lingvistik tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu o'rinda tilning kommunikativ aspektini o'rganishga bo'lgan qiziqish hozirgi davr tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ma'lumki so'zlashuv nutqining eng asosiy belgilaridan biri bu emotsionallikning yuqoriligidir. Emotsionallik salbiy bo'ladimi yoki ijobiymi, bundan qat'iy nazar u turli nutq hollarida turlicha bo'ladi. So'nggi yillarda til va og'zaki nutqda asosan modallik kategoriyasining funksional aspektiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'liq til hodisalaridan sanaladi va bu kategoriya ayni bir paytda tilshunoslikning ham, mantiqning ham tekshirish obyektidir. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi, ikkinchisida esa tafakkur shakli ko'rinishidagi hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi.

Tilshunoslikda "modallik fikrning voqelikka bo'lgan munosabatining turli xil ko'rinishlarini, shuningdek bildirilayotgan narsalarning subyektiv tarzda tasniflanishining turlicha ko'rinishlarini ifodalovchi funksional semantik kategoriya"⁵, deb ta'rif berilsa, mantiq ilmida esa "modallik hukmning asosiy

muhim xususiyati” bo’lib, unda predmetning u yoki bu belgisi ifodalanadi. Modallik hukmda aytilgan voqelikning mazmuniga ko’ra, unga beriladigan semantik tavsif: *hukm, zaruriy, ehtimoliy, tasodifiy, noehtimoliy* kabi tushunchalarning predikat bilan subyekt orasidagi mantiqiy bog’lanishi tushuniladi. Modallik mantiqda *chin, xato, tasdiq, inkor, shart* ma’nolarini anglatib, ular maxsus modal operatorlar orqali ifodalanadi, An’anaviy mantiqda *zaruriy* (apodiktik), *ehtimoliy* (problematik) va *voqeiy* (assertorik) hukmlar bir biridan farqlanadi

„Modal“ so‘zi lotincha „modus“ so‘zidan olingan bo‘lib, „o‘lchov“, „usul“, „yo‘l“ kabi ma’nolarni ifodalaydi. Modallik deganda tilshunoslikda gap mazmunining obyektiv borliqqa va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi . Modallik ostida gapning subyekt bilan bog‘liq bo‘lgan turli ma’nolari tushuniladi.

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik - semantik kategoriya yoki so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi . So'zlovchi obyektiv voqelikni baholash tarzida qabul qilib, uni o'z ongida aks ettiradi va voqelikka bo'lgan munosabatini har xil semantik kategoriyalar yordamida bayon qiladi.

Aristotel tasdiq, inkor, mumkin (ehtimol), zarur kabi modallik kategoriyalari turini aniqlab, ushbu modallik kategoriyalarining rivojlanishiga asos soldi. Sharqda esa Abu Nasr Forobiy mantiq ilmi va uning kategoriyalarini o‘rganib, modallik kategoriyasini chuqur tahlil qildi. O‘rta asrlarda esa mantiqiy modallik rivojlanishida modal konstruksiyalari muhim rol o‘ynagan. Uyg‘onish davrida mantiqiy grammatika vujudga keldi. Leybnits esa mustaqil matematik mantiqqa asos soldi. Uning mantiq tamoyillari va modallik kategoriyalari, matematik mantiq to‘g‘risidagi ilmiy fikrlari hozirgi zamon mantiq ilmida modallik kategoriyasi bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi davrga kelib modallik *kognitiv lingvistikaning* eng dolzarb va keng qamrovli tushunchalaridan biriga aylandi.

Modallik kategoriyasi turli til vositalari tizimida o'z ifodasini topadi, ammo har bir tilda uning tutgan o'rni turlichadir. Nemis tilida modallik kategoriyasini ifodalaydigan vositalardan eng muhimlari quyidagilar: fe'lning grammatik tizimida - fe'l mayllari, modal fe'llar, so'z birikmalari va gaplar; fonetika tizimida - intonatsiya; leksika tizimida- yuklamalar, modal so'zlar.

O'zbek tili nemis tilidan farqli o'laroq, butunlay boshqa til oilasiga mansub bo'lsa-da, biz unda ham agglyutinatativ tizimning o'ziga xosliklariga mos ravishda shakllangan, modallikni ifodalashning bir qator o'xshash vositalariga duch kelamiz. Ularning eng asosiylari fe'l mayllari tizimi, fe'lning maxsus modal shakllari, yuklamalar, affikslar, modal so'zlar, frazeologizmlar, unlilarning ikkilanishi va intonatsiyadir.

1.1 Modallik turlari.

Tilshunoslar modallikning bir qancha turlarini keltirib o'tishgan:

- Mumkinlikni ifodalovchi modallik;
- Shartlilikni ifodalovchi modallik;
- Zaruriyatni ifodalovchi modallik;
- Imkoniyatni ifodalovchi modallik;
- Istak-xohishni ifodalovchi modallik;
- Ish-harakatga nisbatan undashni ifodalovchi modallik;
- Taxminni ifodalovchi modallik;
- O'zgarlar gapini ifodalovchi modallik;
- Tasdiqni ifodalovchi modallik;
- Inkorni ifodalovchi modallik;
- Afsusni ifodalovchi modallik va hakoza.

Nemis tilshunosi F.R. Palmerning fikriga ko'ra modallik quyidagi qismlarga bo'linadi:

■ Predlogli modallik:

Istak-xohishni ifodalovchi modallik; o Ish-harakatga nisbatan undashni ifodalovchi modallik;

■ Hodisani ifodalovchi modallik:

Tasdiqni ifodalovchi modallik; o Dinamik modallik.

Modallik ostida gapning subyekt bilan bog'liq turli ma'nolari tushuniladi, bu ma'nolar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Obyektiv modallik;
- 2) Subyektiv modallik.

Har ikki modallik xususiyati tilda turlicha mavqega ega . Ular bitta gapda bo'lishi mumkin, ammo obyektiv modallik har bir fikr-mulohazada ishtirok etuvchi asosiy modallikdir. Subyektiv modallik esa fakultativ xarakterga ega: u gapda mavjud bo'lishi, shuningdek mavjud bo'lmasligi ham mumkin.

Modallik morfologik (fe'l mayllari-aniqlik, istak, buyruq va fe'lning shaxssiz shakllar (sifatdosh, gerundiy-ravishdosh), leksik (modal so'zlar, modal fe'llar, yuklama, predlog, sifat, ravish, ot, gapning maxsus qurilmalari) va sintaktik vositalar (darak, so'roq, buyruq gaplar) bilan ifodalanadi.¹¹

Modallik obyektiv va subyektiv kategoriya bo'lib, gap mazmunining voqelikka munosabatini bildiradi. Obyektiv modallikning asosiy ifodalanish vositasi hisoblangan fe'lning grammatik kategoriyasi mayl yordamida amalga oshadi, subyektiv modallik esa leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Modal so'zlar, modal fe'llar va yuklamalar ana shunday vositalar hisoblandi.

Nemis tilida modallik kategoriyasini ifodalashda modal fe'llar bilan birga modal so'zlar qo'llanib, ular semantik xususiyati jihatdan turli guruhlarga bo'linib, subyektiv modallikni ifodalashga xizmat qildi.

Obyektiv modallik deganda, odatda, gapdan ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabati tushunilar ekan, demak, uning sxemasi quyidagicha: gap mazmuni - reallik. Bu o'zaro ma'lum munosabatga kirishuvchi ikki elementdir. Munosabat esa elementning qismiga ham, elementlar yig'indisiga ham teng emas. Munosabat mantig'iga muvofiq, munosabat - bu ikki o'rinli (valentli) predikatdir. Demak, u eng kamida uch qismdan tarkib topadi: element - munosabat - element. Obyektiv modallikning yuqoridagi sxemasida u gap mazmuni (reallik) "gap mazmuni" munosabatga kirishayotgan elementlardan biri sifatida qatnashmoqda. Ammo munosabatning (modallikning) o'zi aks etmagan. Bu o'rinda eng zarur qism

- "subyekt" yetishmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar obyektiv modallikni gap mazmunining so'zlovchi nuqtai nazaridan obyektiv reallikka munosabati sifatida talqin qilib, yetishmagan elementni to'ldiradilar. Subyektiv modallik ko'pchilik tilshunoslar fikricha, "subyekt" va "gap mazmuni" elementlarini o'z ichiga oladi. Uning sxemasi quyidagicha: "subyekt-gap mazmuni". Bu yerda ham zaruriy element, "obyekt" (reallik) aks etmay qolgan. Demak, subyektiv modallik ham uch a'zo: "subyekt", "gap mazmuni", "obyekt" birligidan iboratdir. Har safar "obyekt" elementi paydo bo'lishi bilan, ongda darhol "subyekt" elementi ham vujudga keladi yoki, aksincha, "subyekt" elementi paydo bo'lishi bilan - "obyekt" elementi ham paydo bo'ladi, va bu bilan bir vaqtda obyektivga subyektiv ishlov berish mexanizmi ham qo'shiladi. Bu ishlov berishning mohiyati asos deb olinayotgan narsaning ushbu tafakkur akti predikatiga munosabatini (yoki, aksincha, ikkinchi elementning birinchi elementga munosabatini) belgilashdan iboratdir.

Modallik so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya sifatida namoyon bo'lishi, aytilayotgan fikrning real-noreal holatga munosabati (tasdiq-inkor, mumkinlik, taxmin, shubha kabilar) turli vositalar orqali ifodalanishida ko'zga tashlanadi.

Modallik kategoriyasining qo'llanishi va ifodalanish xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu semantik kategoriyaga shunday ta'rif berishimiz mumkin: Modallik kategoriyasi deb, mantiqiy modallik kategoriyalari (reallik, mumkinlik, zaruriyat, inkor, shart) asosida qator semantik kategoriyalarning (tasdiq-inkor, real-noreal, so'roq, undov, payt, sabab, maqsad, qiyos, shart, niyat, buyruq, natija, to'siqsiz, o'rin, inkor, tasdiq, mavjudlik, muloyimlik (xushmuomalik), taxmin (gumon), o'xshatish, holat, maslahat, iltimos, talab, mumkinlik va h.k.) shakllanib, rivojlanib, turli xil ma'no nozikliklariga qo'shilib, uyg'unlashib keng semantik maydonni qosil qilish jarayonida so'zlovchining obyektiv borliqqa munosabatini anglatib, so'zlovchi va tinglovchi orasida kommunikativ muloqot hosil qilishda

1.2.Modallikning ifoda vositalari .

N.Yu.Shvedovanning fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so'z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish (modal) so'zlar va gaplar mansubdir. Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo'shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar. Ko'rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so'zlarning turli guruhleri), sintaktik (alohida gap qurilmalari, so'z tartibi, takror va fonetik vositalar (intonatsiya) kiritiladi. Bir kategoriya ostiga bunday xilma-xil vositalarning birlashtirilishi tilshunoslar o'rtasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning tug'ilishiga sababchi bo'ldi. Shuning uchun ham bu vositalarni birlashtiradigan bir umumiy belgi topishga harakat qilinadi. Bu vositalarning hammasi o'z funksiyasini gap ichida (gap sathida) ko'rsatadi. Ana shu belgi, ya'ni sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma'lum darajada asos bo'ldi. Shunga ko'ra modallik vositalarini ham: 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik guruhlarga ajratish mumkin . Barcha modal ma'nodagi vositalarga sintaktik maqom berilishi bu vositalarning tuzilishi umumiylikni ko'rsatish uchun asos bo'ladigandek tuyuladi. Ammo, ma'lum bir o'rinda birlashtirishga asos bo'lsa" bu sintaktik belgisi modal vositalar farqlanishida o'z quvvatini yo'qotadi .

Modallikni ifodalovchi vositalarni nutqda o'z o'rnida qo'llash nuqtning jozibadorligini va tasirchanligini oshirgan holda tinglovchi va o'quvchining muallifga nisbatan e'tiborini kuchaytiradi. Dialogik nutqdagi subyektiv modallikni reallashtirishda fonetik, morfologik, sintaktik va leksik vositalar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, subyektiv modallikning yuzaga chiqishida iboralar ham o'ziga xos o'rin egallaydi.

Modallik kategoriyasi funksional-semantik kategoriya va uni kommunikatsiya (nutqiy aloqa) orqali tahlil qilish o'ta muhim hisoblanadi.

Fonetik vositalar.

Dialogik nutq, subyektiv modallikning barcha jihatlarini keng va atroflicha qamrab oladi. Subyektiv modallik, birinchi galda, har bir tilning tovushlar sistemasida namoyon bo'ladi. Uning voqe bo'lishida unli va undosh tovushlarning faoliyati muhim hisoblanadi. Dialogik nutqdagi subyektiv modallikning fonetik usul bilan ifodalanishida intonatsiya tarkibiy qismlari, ya'ni pauza, melodika, urg'u muhim o'rin egallaydi. Dialogik nutqqa oid materiallarni kuzatishlar natijasida subyektiv modallikning fonetik vositalar asosida ro'yobga chiqarilishi o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Uning ifoda vositalari quyidagilardan iborat:¹⁴

1. *Unlilarning cho'ziq talaffuz qilinishi.* Bu vosita so'zlashuv nutqida dialektal hamda adabiy shakllarida keng qo'llanadi. Personaj nutqining munosabatini bo'rttirish vositasi hisoblanib, subyektiv modallikning milliy, o'ziga xos qirralarini ochish uchun xizmat qiladi. Dialogik nutqda unlilarning cho'ziq talaffuz qilinishi turli modal ma'nolarni ifodalaydi.

2. *Undoshlarning ikkilanishi.* Mazkur holat ham asosan, dialogik nutqqa xosdir. Yozuvchilar so'zlashuv nutqining biror sheva yoki dialektga oid qirrasini ochish maqsadida ana shu ko'rinishdan foydalanadi. Yozma adabiy tidda esa bu hodisa deyarli uchramaydi, ammo ba'zi o'rinlarda nutqni individuallashtirish uchun qo'llanadi. Undoshlarning ikkilanishi ot, sifat, son, fe'l turkumlariga oid so'zlarda, shuningdek, frazeologizmlarda kuzatildi. So'z tarkibidagi undoshlarning ikkilanishi dialogik nutqda subyektiv modallikni kuchaytirish vositasi hisoblanali. Bu hodisa, asosan, sirg'aluvchi undoshlarga xosdir.

Dialogik nutqdagi subyektiv modallikning reallashuvida *ohang, vaziyat, ovoznining kuchi* hamda balandligi muxim ahamiyatga ega

Morfologik vositalar:

Ma'lumki, agglyutinativ tillarda affiks va affiksoidlar asosiy mavqega ega. Shunga ko'ra, ularda milliy o'ziga xos, takrorlanmas subyektiv modallik voqe bo'ladi. Dialogik nutqda subyektiv modallikni ifodalovchi morfologik vositalar jumlasiga affiks va affiksoidlar kiradi. Ular ot, sifat, ravish kabi so'z turkumlari

tarkibida bo'ladi. Affiks va affiksoidlar erkalash, suyish, mensimaslik, bepisandlik, kamsitish, kesatish, ta'kid, munosabat, e'tirof, kichraytirish, hurmatsizlik, ishora, achinish, qayg'urish, mehribonchilik, kesatish, hurmat kabi turli tuman ma'nolarni ifodalaydi.

Modallikni ifodalovchi morfologik vositalar deganda, eng avvalo, fe'l mayllarini tushunamiz.

Fe'l mayllari. Ish-harakatning voqelikka munosabati mayl deyiladi. Voqelik - muayyan ish-harakatning ma'lum zamon va makonda shaxs tomonidan amalga oshirilishidir. Nemis tilida fe'lning uch mayli farqlanadi:

1. Aniqlik yoki ijro mayli-Indikativ;
2. Buyruq-istak mayli- Imperativ;
3. Shart mayli - Konjunktiv.

Aniqlik maylining maxsus morfologik ko'rsatkichi yo'q. Aniqlik maylidagi fe'l ish-harakatning uchala zamondan birida yuz berayotganligi yoki bajarilayotganligidan xabar beradi.

- Wir haben Gloria ein intaktes Familienleben geboten.(o'tgan)
- Heute kann ich nicht. (hozirgi)
- Sie wird ja auch alter, Harry.(kelasi)

Buyruq-istak maylidagi fe'llar buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni anglatadi. Bu mayldagi fe'lning I shaxsi istak, iltimos ma'nolarini, II shaxsi sof buyruq, iltimos ma'nolarini, III shaxsi esa maslahat, iltimos ma'nolarini bildiradi. Buyruq mayli buyurish, talab, iltimos, man etish ma'nolarini ifodalaydi.

U yasalishiga ko'ra 4 shaklga ega:

- a) II shaxs birlik shakli;
 - b) II shaxs ko'plik shakli;
 - c) Hurmat shakli;
 - d) Birgalik shakli.
- Geh doch zu seiner Bibliothekarin.(buyruq)
 - Zeig mir, wie man das macht.(istak)
 - Sag mir auch das Negative, das ich von ihr habe.(maslahat)

Shart maylidagi fe'llar boshqa biror ish-harakatning amalga oshishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakat ma'nosini anglatadi. Konjunktiv o'zining modallik xususiyatiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi:

- 1) Der imperative Konjunktiv;
- 2) Der optative Konjunktiv;
- 3) Der potenzielle Konjunktiv.

Der imperative Konjunktiv ko'rsatma, maslahat, talab, ta'kidlash, ajratish, ko'rsatish, qayd qilish, faraz va taxmin ma'nolarini ifodalab keladi. Der optative Konjunktiv orzu-istak (amalga oshadigan va oshmaydigan), buyruq, qistash ma'nolarida keladi. Der potenzielle Konjunktiv esa hayratlanish, shubha, gumon, ishonchsizlik ma'nolarini ifodalab keladi.

- Ich wusste, dass du sagen würdest. (darak)
- Wüde dir das gefallen? (so'roq)
- Das hätte ich nicht erleben wollen. (inkor)

Morfologik vositalar yordamida modal ma'nolarning yuzaga chiqishida ohang, shuningdek, egalik qo'shimchalarining roli ham muhim hisoblanadi.

Leksik vositalar:

Nemis tilida modallikni ifodalovchi asosiy leksik vositalarga modal yuklamalar, modal so'zlar va modal fe'llar kiradi.

Modal yuklamar:

Keyingi yillarda modal yuklamalarga qiziqish tilshunoslarning diqqat markazidadir. Modal yuklamalar so'roqqa javob bo'la olmaydi. Ular vazifasiga ko'ra ko'pincha gap funktsiyalarini yoki fikrlarni bog'laydi.

Yuklamalarga quyidagicha ta'rif beriladi:

Yuklamalar so'zlovchi tomonidan gapda (kontekstga bog'liq holda), qo'shimcha, ba'zan, yangi informatsiyani bayon qilish va turli tipdagi modal, emotsional, ekspressiv (tasirchan) qiymatni ifodalash uchun qo'llanuvchi hamda tildagi ayrim leksik, morfologik, sintaktik birliklarning organik konstruktiv elementar vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlardir.¹⁶ Yuklamalar yordamchi

soʻzlar guruhiga kiradi. Ular gap mazmuniga har xil qoʻshimcha maʼnolar kiritib, soʻz va gap boʻlaklarining maʼnosini kuchaytirishi, chegaralab koʻrsatishi mumkin.

Yuklama bu - undalmaga oʻxshab, mustaqil soʻz va gaplarga qoʻshimcha maʼno beradigan, atash maʼnosiga ega boʻlmagan, maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydigan, gap boʻlagi vazifasini bajara olmaydigan yordamchilar yuklama deyiladi. Yuklamar tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi:

1. Soʻz yuklamalari.
2. Qoʻshimcha koʻrinishidagi yuklamar.

Yuklama mustaqil soʻzlar orasidagi grammatik munosabatlarni yoki ularga qoʻshiladigan modal maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ular modal, undov, his-hayajon, payt, inkor, kuchaytiruv, qiyoslash, ayiruv, emotsionallik maʼnolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Nemis tilida modal yuklamalarning oʻziga xos belgilari:

- Modal yuklamalar oʻzgarmas hisoblanadi;
- Modal yuklamar gapda yetakchi oʻrinni egallamaydi;
- Modal yuklamar butun bir gapga tegishli boʻladi;
- Modal yuklamar doim urgʻusiz boʻladi;
- Modal yuklamalar fakultativ hisoblanib, istalgan vaqt gapning grammatik qurilishini oʻzgartirmay turib olib tashlash mumkin;

Yuklamalar ham subʼyektiv modallikni ifodalovchi vositalardan sanaladi. Yuklamalar dialogik nutqda matn bilan bogʻliq ravishda, serqirra, nozik modal maʼnolarni ifodalay oladi va bu bilan subʼyektiv modallikning milliy jozibasini oʻzida toʻla aks ettiradi. Chunonchi, ular soʻroq, qiziqish, gumon, taʼkid, tasdiq, kuchaytiruv, eʼtirof, eʼtiroz, norozilik, ikkilanish, taajjub, eslatish, ayiruv singari modal maʼnolarni roʻyobga chiqaradi.

Modal soʻzlar:

Fikrning voqelikka munosabatini bildirgan soʻzlar modal soʻzlar deyiladi. Oʻzbek tilshunosligida esa modal soʻzlarga munosabat deyarli bir xil boʻlib: «Soʻzlovchining oʻzi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini ifodalash uchun xoslangan soʻz modal soʻz deyiladi. Modal soʻz fikrning

chinligi, aniqligi, qat'iyliigi yoki gumonli, chamali ekanligi kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi, shakl jihatdan o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi».

Modal so'zlarning dialogik nutqda subyektiv modallik ifodalovchi vosita sifatidagi o'rni o'ziga xos. Nutqda fikrning modal ma'nolari ko'p, rang-barang va serqirra bo'lganligi sababli dialogda modal so'zlar oldingi fikrga munosabatini ifodalash maqsadida ishlatilib kelinmoqda. So'zlovchi va suhbatdosh nutqda qo'llanayotgan modal so'zlarni ma'no xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan guruhlarga ajratish ma'qul, chunki ular semantik jihatdan quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi. Modal so'zlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Fikrning aniqligini, realligini, tasdiqlovchi modal so'zlar: *selbstredend, zweifellos, sicherlich, bekanntlich, keineswegs, mitnichten, allerdings, freilich, offenbar, anscheinend, angeblich, schwerlich*

2. Fikrning taxminligini, gumonligini, noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar: *vielleicht, wahrscheinlich, möglich, möglicherweise...*

3. Fikrning o'zaro munosabatini va tartibini bildiradi (yoki fikrning oldingi fikrga bog'liqligini bildiradi): *überhaupt, folglich, eigentlich, jedenfalls, übrigens, überdies, vielmehr, allerdings, freilich, immerhin...*

4. Tasdiqni bildiradi ja, jawohl, *doch*

5. Inkorni bildiradi: *nein, keineswegs.*

6. Afsuslanish, ajablanishni bildiradi: *glücklicherweise, hoffentlich, leider, bedauerlicherweise.*“

7. Modal so'zlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

a. diologlarda so'z - gap vazifasida

b. kirish so'z vazifasida.

Shuningdek qo'shma kesim vazifasida keluvchi modal so'zlar ham nutqda keng qo'llanadi. Ular semantik jihatdan quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ta'kid yoki tasdiq orqali munosabatda muqarrarlik, qat'iylik, taxminiylik.

2. Ta'kid yoki tasdiq orqali munosabatda mumkinlik, e'tirof, shartlilik, inkor. Dialoglarda modal so'zlar gap (replika)ning boshi, o'rtasi yoxud oxirida,

shuningdek, yakka (soʻz-gap) holda qoʻllanadi.

Modal feʻllar:

Nemis tilida modal feʻllar quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

- Mumkinlikni ifodalaydigan modal feʻllar;
- Zaruriyatni ifodalaydigan modal feʻllar ;
- Istak, xohish, niyatni ifodalaydigan modal feʻllar ;
- Ish-harakatga nisbatan undashni ifodalaydigan modal feʻllar;
- Taxmin maʼnosini ifodalaydigan modal feʻllar;
- Oʻzgalarning gapini ifodalaydigan modal feʻllar.

Nemis tilida oltita tub modal feʻllar bor. Ular: *können, dürfen, müssen, sollen, mögen, wollen*:

Du *kannst* gern fahren, keiner hindert dich. (mumkinlik) Ich *wollte* einfach wissen, was für ein Mensch er ist. (xohish)

Was *soll* ich denn zugeben? (majburiylik)

Angeblich *muss* sie sich um alles kümmern . (zaruriyat) Ich *mag* das alles nicht. (xohlamaslik)

Ein Autor *darf* fantasieren. (ruhsat)

Sintaktik vositalar:

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi boʻlib, morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada soʻz turkumlari, sintaksisda soʻz birikmalari, gap turlari oʻrganiladi. Grammatika grekcha soʻzdan olingan boʻlib, “oʻqish va yozish sanʼati” degan maʼnoni bildiradi. Sintaksis ham grekcha soʻz boʻlib, “tuzish” demakdir.

Nutqda soʻz, soʻz birikmalari hamda gaplarning takrorlanishi yoʻli bilan qoʻshimcha maʼnolar anglatilishi mumkin. Ularning nutqdagi maʼnolari oʻzgaruvchan boʻlib, mavzu bilan bogʻlangan boʻladi. Subʼyektiv modallikni ifodalovchi sintaktik vositalar jumlasiga sintaktik konstruksiyalar, soʻz birikmalari, gaplar, replika-takrorlar kiradi.

1. Dialoglarda ayrim logik urg'uli bo'laklarning, ya'ni so'z, so'z birikmalari hamda gaplarning ohang ta'sirida modal ma'no ifodalashi qayd etildi. Ularda sub'yektiv modal shaxsning ichki kechinmalari, yuz bergan voqea-hodisa bilan bog'lik ravishda voqe bo'ladi. Bunda modal ma'noni kuchaytirishda ohang, egalik kelishik, shaxs-son va zamon qo'shimchalari, shuningdek, so'roq yuklamalarining o'ziga xos o'rni bor.

2. Sub'yektiv modallikni reallashtirishda muxim o'rin egallaydigan vositalardan biri replika-takroridir. Ular diqqat-e'tiborni jalb qilib kelgan dialogik birlik element hisoblanadi. Rus tilshunosligida V.P Vinokur, ML. Mixlina, V.Volkov, M.P.Svyatogor, N.YU.SHvedova va boshqalar replika- takrorlarning o'ziga xos xususiyatlari, farqlanishi, turlari haqida qimmatli fikr-mulohazalar bildirib o'tganligini alohida qayd etmoqchimiz. Ayni shu o'rinda B. O'rinboevning replika-takror haqidagi fikrini keltirib o'tishni lozim, deb topdik: "Keyingi replika oldingi replika sostavidagi biror so'zni, bo'lakni, butun bir gapni takrorlash asosida takror-replika tuziladi". Bu fikrga qo'shilgan holda, quyidagi holatni ham qayd etmoqchimiz: dialogik nutqda so'z yoxud biror gap bo'lagi shaklidagi replika-takrorlar ham uchrar ekan. Ular sintaktik usulga xos vosita sanalib, dialogik nutqda sub'yektiv modallikni ifodalaydi.

Dialogik nutqda replika-takrorlar qo'rqinch-ta'kid, hayronlik-ta'kid, taxdid-ta'kid, taajjub-ta'kid, g'azab-ta'kid, hayratlanish-ta'kid, tasdiq-ta'kid, ishonchsizlik-ta'kid, ajablanish-ta'kid, qasam-ta'kid kabi xilma-xil modal mazmunlarni ro'yobga chiqaradi.

Nemis tilida modallikni ifodalovchi vositalarga infinitiv guruhlar va gap turlari kiradi. Ular ifoda maqsadiga, zamoniga, turiga ko'ra har xil modal ma'nolarni ifodalab keladi.

Dialogik nutqda sub'yektiv modallikning ifodalanishi.

Nemis tilida modallikni ifodalovchi sintaktik vositalarga quyidagilar kiradi:

Infinitiv konstruksiyalar

haben / sein + zu,

Gerundiv, würde +

Futur I, II,

Haben + Infinitiv mit zu

Haben fe'li Infinitiv bilan qo'llanganda, u zaruriyat va imkoniyat ma'nosini anglatadi.

Sein + Infinitiv mit zu

Sein fe'li ham Infinitiv bilan qo'llanganda, zaruriyat va imkoniyat ma'nosini anglatadi. Sein Infinitiv konstruksiyasida qo'llanilgan ega majhul nisbatga ega.

Bu shuni anglatadiki, eganing kimligi emas, balki holat ifodalanadi.

Bu konstruksiya *müssen, sollen, können* modal fe'llari bilan qo'llanilgan infinitiv passiv bilan almashtirilishi mumkin.

Gerundiy(Sifatdosh)

Sifatdosh fe'lining sifatga yondosh (yaqin) shaklidir. Partizip I (sifatdosh) *zu* yuklamasi bilan qo'llanilganda, u majhul nisbat ma'nosiga ega bo'lib, zaruriyat yoki imkoniyatni ifodalaydi. U ma'no jihatidan Sein + Infinitiv mit zu ga mos keladi.

Würde + Infinitiv

Würde+ Infinitiv Konjunktivning bir shakli hisoblanadi va Konjunktivdagi kabi bir xil ma'noga ega. Ushbu konstruksiya noreal imkoniyatni ifodalaydi.

Futur I, II

Futur I kelasi zamon shakli hisoblanib, qat'iy buyruq, taxmin-gumon ma'nolarini anglatib keladi. Bunda taxmin-gumon hozirgi zamonga tegishli bo'ladi.

Futur II taxmin-gumon, ehtimollikni bildiradi. Bunda taxmin- gumon o'tgan zamonga tegishli bo'ladi.

Gap

Modallik har bir gapning konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi. Hozirgi nemis tilida gapdagi modallik uch turga bo'linadi:

1. Gapdagi fikrning aniqliligini ifodalovchi modallik. Modallikning bu turi gapda bayon qilingan fikrning real, aniqligini tasdiqlash yoki inkor etishni ifodalaydi.

2. Gapdagi fikrning noaniqligini ifodalovchi modallik. Bu modallik bayon qilingan fikrga shubha, gumon, taxmin bilan qarashni, real-amalga oshadigan, noreal- amalga oshmaydigan yoki shartli ravishda amalga oshadigan orzu-istaklarni ifodalaydi.

3. Harakatni bajarishga undash modalligi. Bunday modallik so'zlovchining voqelik fakti haqida fikr yuritibgina qolmasdan, balki harakatni bajarishga undashini, buyurishini, qistashini, iltimos qilishini ifodalaydi.

2-bob Nemis tilida modallik kategoriyasini ifodalash usullari

2.1. Modallik kommunikativ birlik sifatida.

Modallik kategoriyasini hozirgi zamon nemis tili materiallarida tahlil qilgan tilshunoslar fikricha, modallik tushunchasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: a) so'zlovchining real yoki noreal harakatni baholashga munosabati; b) sub'yekt harakatining o'z harakatiga munosabati. Bu harakatning infinitiv bilan ifodalanishi, uning harakat qobiliyatini tushunish, harakatning amalga oshishga tayyor yoki zarurligini anglash; d) harakatning amalga oshishi uchun so'zlovchining buyurishi yoki istagi; e) so'zlovchining qandaydir uchinchi shaxs tomonidan o'z fikrini bildirishi.

Bu modallik shakllarining har biri o'ziga xos ifodalanish tizimiga ega. Birinchi tur konyunktiv va kondisional shakllar bilan; ikkinchi tur modal qurilmalar yoki yordamchi fe'l va infinitiv bilan; uchinchi tur buyruq, indikativ, konyunktiv zamon shakllari va modal fe'llarning qurilmalari bilan; to'rtinchi tur konyunktiv, kondisional shakllar va *sollen*, *wollen* modal fe'llarining qurilmalari bilan ifodalanadi.

Gapning modallik aspekti bo'yicha eng ko'p bahsli muammolardan biri grammatik ma'nolar bo'lib, bunda, bir tomondan, tasdiq va inkor, ikkinchi tomondan, turli shubha, ishonch, istak kabi tushunchalar ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda barcha til hodisalari murakkab holatda bir-biri bilan kesishib, gapning modallik aspektini hosil qiladi degan qarash bor. Bundan tashqari, til hodisalarining semantik mohiyati bir xil emas, degan fikr ham mavjud. Masalan, tasdiq va inkor ma'nolari gapning modallik aspektiga go'yo aloqasi yo'qdek. Shuning uchun bu tushunchalarni gapning modallik aspektida emas, balki boshqa holatlarda ko'rish mumkin degan mulohaza ham kuzatiladi.

Binobarin, olimlarning gapning modallik xususiyatiga doir qarashlari bir xil emas. Buning sababini aniqlash uchun tushunchalar orasidagi munosabatlarga mos keluvchi grammatik ma'no va shakllarning ifodalanishi gapning ichki modallik aspektida ko'rish yoki tasdiq va inkor munosabatlarining berilishini alohida ajratib, uni "affirmativ-tasdiq aspekt" deb atash muammosida V. G. Admoni nazariyasi

muhim hisoblanadi. U oddiy gaplarning affirmativlik xususiyatidan kelib chiqib, ularni quyidagicha tasnif qiladi: 1) tasdiq gaplar; 2) inkor gaplar. Muallif bu gaplarni tahlil qilar ekan, inkor gaplarni uchta kichik tipga bo'lib, inkor kategoriyasining gapda qo'llanishini *nicht*, *keineswegs*, *kein* yuklamalari orqali izohlab beradi. Uning fikricha, nemis adabiy tilida inkor ikki guruhga bo'linadi: umumiy va ayrim(xususiy). Ularning farqi shundaki, *nicht* yuklamasi ko'proq umumiy inkorni ifodalasa, *kein* yuklamasi esa ega yoki predmet oldidan kelib, ayrim inkorni anglatadi. Umumiy inkor gapda bevosita fe'l kesim bilan bog'lanib, jumlaning umumiy mazmuni salmog'iga tegishli bo'lsa, ayrim inkor esa, aksincha, gapda biror komponent oldida kelib, fe'l kesim bilan bog'lanmasdan faoliyat ko'rsatadi. Bunga otlarning alohida ajratilgan guruhlari kiradi.

V. G. Admoni oddiy gaplarning modal tiplarini tasnif qilar ekan, ularni modallikni ifodalash xususiyatidan kelib chiqib ikkita guruhga ajratadi: 1) fe'l shakllari yordami bilan hosil bo'lgan modallik; 2) gapning modal bo'laklari bilan hosil bo'lgan modallik. Birinchi guruhga *werdenfe'li* va modal fe'llar, fe'lning infinitiv va sifatdosh shakllari, shuningdek, aniqlik maylining Futur I,II zamonlari, hozirgi va o'tgan zamon konyunktiv I, II va kondisional zamon shakllarini kiritadi. Ikkinchi guruhga modal so'zlar *sicher*, *gewiss*, *wahrscheinlich* va hako'zolar kiradi. Bu guruhga og'zaki nutqda ko'pishlatiladigan *nein*, *ja*, *jawohl* so'zlarini ham qo'shadi.

Ta'kidlash lozimki, nemis tilida modallik kategoriyasini tahlil qilishda ko'pchilik tilshunoslar asosiy e'tiborni modal so'zlarning semantik xususiyatlariga qaratadilar.

E. V. Gulga nemis tili nazariy grammatikasida modallik kategoriyasini ergash gapli qo'shma gaplar misolida birinchi bo'lib batafsil tushuntirib bergan. Uning fikricha, "gapning konstruktiv belgilari predikativlik va modallikdir. Predikativlik va modallik o'zaro uzviy bog'langan, ammo ularni bir biriga o'xshatish kerak emas. Predikativlikning mohiyati tasdiq va inkorni bir biriga taqqoslaganda ochiladi. Modallik sintaktik kategoriya bo'lib, u so'zlovchining fikri bilan ob'yektiv voqelik orasidagi munosabatni ifodalaydi. Modallik ikki

kategoriyada, ya'ni reallik-noreallik (yoki potensial-taxminiy) munosabatida namoyon bo'ladi.

”Agar reallik, -deb fikrini davom ettiradi E.V. Gulga, bitta kategoriyaga ega bo'lsa, unda potensial-taxminiy modallik uchta kategoriyada namoyon bo'ladi: 1) potensial-noreal modallik; 2) buyruq modalligi; 3) taxmin modalligi. Bu kategoriyalarning har birini o'z ichida yana alohida ma'nolarga ajratish mumkin”.

A. M. Bushuy esa o'z tadqiqotlarida ko'proq amaliy mashqlar o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi va nutqning modalligini, ta'sirchanligini oshirish maqsadida konyunktivning qo'llanish xususiyatini maxsus tayyorlangan matnlarda lingvistik tahlil qilish uchun uslubiy ishlanmalar tavsiya qiladi.

2.2 Modallik kategoriyasining tillar misolidagi aksi

Modallik kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari qadimgi yunon falsafa fani namoyondalari asarlarida ilk bor tadqiq etilgan. Xususan Aristotel formal mantiqni borliq haqidagi ta'limoti bilish va haqiqat nazariyasi bilan bevosita bog'liq holda mantiqiy hamda borliq shakllari sifatida ko'rsatgan. Bunda Aristotel modallik kategoriyasiga alohida e'tibor berganligini ta'kidlash lozim. U mantiqiy fikr va mulohazalarni sistematik tahlil qilib, mantiqiy modallik nazariyasi, ta'limotiga asos soldi va uni ilmiy-falsafiy maydonga olib chiqib, modal universallari va ayrim (alohida, shaxsiy, xususiy) mulohazalari bilan zid va sillogistika (xulosa chiqarish) jadvalini tuzishga harakat qilgan. Aristotel ularni (*zarur*, *mumkin*) umumiy va ayrim fikr holida " modal tushunchalar bilan bog'lab tushungan" Natijada ikkita mantiqiy- lingvistik modallik kategoriyasi ya'ni *zaruriyat* va *mumkinlik* kategoriyalari kelib chiqadi.

Aristotel modallik kategoriyasining mohiyatidan kelib chiqib, uni ikki aspektga ajratgan: ob'ektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi mumkinligi yoki uning haqiqatga oshmaslik mumkinligi (ehtimolliligi).

Birinчисida ish-harakatning kelajakda amalga oshishi real, tasdiq sifatida qaralsa, ikkinчисida ushbu harakatning amalga oshishi mumkin emasligi nazarda tutiladi.

Aristotel " Kategoriya" deb nomlangan asarida tushunchalar, ularning turlari,

asosiy, umumiy, ilmiy tushuncha- kategoriyalar, tilda turli xil kategoriyalarning rivojlanishiga va ularning xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor bergan.

2.3 Modallik - gapning semantik komponenti

Modallik eng avvalo obyektiv borliqni inson ongida aks etishi yoki voqelikka bo'lgan nutq mazmunining munosabatini ifodalaydi. Modallik gapning turli tiplari uchun umumiy tushuncha hisoblanadi. Har bir gap o'zi uchun muhim konstruktiv belgisi bo'lgan modal ma'nolarni, ya'ni voqelikka bo'lgan munosabatni qamrab oladi. Biror maqsadga yo'naltirilgan har qanday gap mazmuni, hissiyot, undash u yoki bu gap shaklida voqelikni aks ettiradi va bu til tizimida mavjud bo'lgan gapning intonatsion tuzilishiga o'ralib, fe'l mayllari yordamida sintaktik ma'nolarning birini ifodalab, modallik kategoriyasini tashkil qiladi. Nemis tilida modal fe'llar bilan birga modal so'zlar qo'llanib, ular semantik xususiyati jihatdan turli guruhlarga bo'linib, sub'yektiv modallikni ifodalashga xizmat qiladi.

Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponentidir. Modallik kategoriyasiga gap modalligini ta'minlashda xizmat qiladigan xilma-xil vositalar kiritiladi. V.3.Panfilov ta'kidlaganidek, juda ko'p mualliflar tomonidan modallik kategoriyasi tarkibiga o'z mohiyati jihatidan: funksional vazifasi, til tuzilishiga mansubligi jihatidan xilma-xil bo'lgan ma'nolar kiritiladiki, natijada bu kategoriya ma'lum aniqlikdan mahrum bo'ladi . Bu esa hatto modallikning alohida til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubha ostiga qo'yadi. Jumladan, I.P.Raspapov modallik haqida fikr yuritib, sof grammatik ma'nodagi kategoriya sifatida hech qanday modallik kategoriyasi mavjud emas, deydi. Uning fikricha, modallik kategoriyasi haqida emas, balki gapning modal sifati haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi . T.P.Lomtev ham bu kategoriyaga nisbatan xuddi shunga o'xshash fikr bildiradi. Uning fikricha, modal xarakteridagi grammatik kategoriya grammatik modal kategoriyani emas", balki bir temani tashkil etadi . Modallik haqidagi bunday fikrlar tasodifiy emas albatta,

modallikning an'anaviy talqiniga ko'ra, darhaqiqat, uni ta'riflash juda qiyin. Modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barangdir. Tilshunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodikasi bo'lmaganligi tufayli modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda. Shuning uchun ham R.G.Sibagatov modallik kategoriyasini belgilashda turli sathlilik kategoriyasiga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, tilshunoslikda turli sathlilik kategoriyasi mavjud bo'lib, bu kategoriyani turli sathga oid birliklarning bir umumiy tushuncha atrofida birlashishi hosil qiladi. Turli sathlilik kategoriyasining mazmuni - bu butun bir semantik soha bo'lib, bir-biridan farq qiluvchi va shu bilan birga bir tushuncha ostiga birlashgan grammatik va leksik ma'nolarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, modallik kategoriyasi ifoda planiga ko'ra haqiqatan ham turli sathlilik kategoriyasiga mansubdir. Turli sathga oid birliklar bir tushuncha - modallik tushunchasi ostiga birlashadi. Demak, modallik kategoriyasi til kategoriyasi sifatida obyektiv mavjuddir.

Modallikning umumiy ta'rifga tilshunoslikda ma'no plani nuqtai nazaridan yondashiladi, ya'ni munosabat belgisi e'tiborga olinadi. Ammo V.3.Panfilov ta'kidlaganidek, tilshunoslikda bu kategoriyaning mohiyati, uning fikr modalligi munosabati, gap modalligining tiplari, modallikning predikativlikka munosabati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalar bo'yicha bir xillik yo'q. Gapning nominativ aspekti tarafdorlari gapni ikki qismga diktum va modusga ajratadilar. Diktum bu sintaktik qurilma ifodalaydigan obyektiv mazmun, ya'ni propozitsiyadir.

Ma'lum sintaktik qurilmaning gap bo'lib shakllanishi uchun faqat diktumni (propozitsiyani) ifodalashgina yetarli bo'lmaydi. Sh.Ballining fikricha, modus qo'shilgandagina gapga aylanadi. Demak, modus gapning eng muhim qismidir, usiz gap shakllana olmaydi, chunki modallikni aks ettira olmaydi. U jumlaning diktumdan boshqa barcha xususiyatlarini modusga kiritadi. Shuning uchun ham jumla formulasini $S + M + R$ (S-jumla, M-modallik, R-propozitsiya) (diktum)

tarzida ko'rsatadi . Bunday tushunishda kommunikatsiyaning turlari hisoblangan darak, so'roq, buyruq ma'nolari, emotsional ma'nolar, subyektiv - modal ma'nolar va boshqalar modus hisoblanadi.

Modallik V.V.Vinogradovning 1950 yilda e'lon qilingan maqolasida ham shunday keng talqin qilindi va uning bu konsepsiyasi rus tilshunosligidagi modallik muammosi yuzasidan qilingan keyingi tadqiqotlarga ham juda katta ta'sir qildi. V.V.Vinogradov va uning izdoshlari tomonidan modallik ostida: 1) kommunikativ ma'no turlari: darak, so'roq, buyruq ma'nolari bo'yicha farqlanadigan gap turlari, 2) tasdiq va inkor bo'yicha farqlanadigan gap turlari ; 3) gap mazmuniga so'zlovchining hissiy munosabati va boshqa bir qator ma'nolar birlashtiriladi. T.B.Alisova Sh.Ballining diktum va modus haqidagi fikrini davom ettirib, modallik haqida shunday deydi: "Har qanday jumlaning predikativ tabiati ikki sathdan tashkil topadi: birinchisi denotat (diktum)ning subyekt-predikat munosabatini aks ettirsa, ikkinchisi bu munosabatga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi . G.A.Zolotova uchinchi tip modal munosabatni - harakat va uning agensi o'rtasidagi munosabatni ajratadi . Birinchi tip munosabat (obyektiv modallik) - bu jumla mazmunining borliqqa reallik-noreallik, muvofiq kelish yoki muvofiq kelmaslik nuqtai nazaridan munosabatdir. Ikkinchi tip munosabat (subyektiv modallik) - bu so'zlovchining jumla mazmuniga ishonch, gumon, aniqlik-noaniqlik, rozilik kabi munosabatlaridir. Uchinchi tip modallik esa o'z ichiga mumkinlik, istak, zarurlik kabi ma'nolarni oladi . Birinchi tip modallikning asosiy ifoda vositasi mayl kategoriyasi, ikkinchi tipniki - kirish (modal) so'zlar, uchinchi tipniki esa kesimga (predikatga) qo'shiladigan holat kategoriyasi hisoblanadi. Birinchi tip modallik gapning zaruriy belgisi, modallikning qolgan tiplari esa gapning fakultativ belgisi ekanligi ko'rsatiladi. Shunday qilib, modallikning mazmun plani ham bir umumiy belgining yo'qligi uning ichki butunligiga putur yetkazadi. Modallik kategoriyasining yuqoridagi tiplarini ajratishda eng muhim narsa - subyektiv tomonga e'tibor kam jalb qilinadi. Xuddi shu subyektiv tomon birlashtiruvchi belgi vazifasini bajarishi mumkin. R.G.Sibagatov modallik birinchi navbatda, so'zlovchining reallikka bo'lgan

munosabatining aks etishidir, deb to'g'ri ta'kidlaydi. Uning fikricha, modallikning mazmun plani uchun so'zlovchi munosabatini birlashtiruvchi belgi sifatida asos qilib olish kategoriya butunligini saqlaydi.

Modallikning munosabat ifodalanishini hamma e'tirof etadi. Munosabat esa shu munosabatga kirishuvchi ma'lum elementlarning bo'lishini taqozo etadi. Tilshunoslikda o'zaro munosabatda bo'lgan elementlar masalasi o'zining aniq talqinini topgan emas. Shuning uchun munosabatning o'zi ham shu kunga qadar noaniq bo'lib keldi.

Predikativlik va modallik.

Predikativlik va modallik o'zaro chambarchas bog'langan hodisalardir. Shuning uchun ham lingvistika tarixida bu ikki hodisaning o'zaro munosabatiga bag'ishlangan juda ko'p asarlar bor. Shunga qaramay, bu ikki hodisaning tutash nuqtalari nimalardan iborat va qaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi, degan savollar hamon aniq javobini topgani yo'q. Ba'zan predikativlikni modallik bilan tenglashtirish hollari ham uchraydi. Har ikkisinin ham gap mazmunining ob'ektiv reallikka munosabatini ifodalashi ta'kidlanadi (V. V. Vinogradov) . Gapni gap qilib turgan eng asosiy belgi nima, degan savolga ham ba'zilar modallik, deb javob beradilar .Modallik va predikativlik haqida gap qetganda ba'zan modallikning predikativlikka nisbatan juda keng tushuncha ekanligi, ba'zan esa modallik predikativlikning uzviy bir qismi ekanligi ta'kidlanadi . V.V. Vinogradov bir o'rinda predikativlik bilan modallikni tenglashtirib, "...predikativlik kategoriyasining to'g'ri, doimiy va bevosita ifodalanishi gap modalligidir",- deydi, ikkinchi o'rinda modallikni predikativlikning bir komponenti sifatida qaraydi . N Ye.Petrov modallik va predikativlikning ma'lum chegarasini belgilash uchun predikativlikni logik-sintaktik kategoriya sifatida til sathi bnrligi, modallikni esa kommunikativ-sintaktik kategoriya sifatida nutq sathi birligi tarzida qarash lozim, - deydi .Ammo bu bilan ularning farqi aniq ochilmaydi. Chunki modallikning bir turi til sathiga ham oiddir. Semantik planda modallik kategoriyasi uchun birlashtiruvchi belgi vazifasini bajaruvchi subyektivlik (so'zlovchi nuqtai nazari) predikativlik kategoriyasi bilan modallik kategoriyasi o'rtasida farqlovchi belgi

vazifasini o'tishi mumkin. Birinchidan, modallik predikativlikka nisbatan, darhaqiqat, keng tushuncha. Chunki predikativlik faqat gap sathi uchun xarakterli bo'lsa, modallik gap bo'lmagan qurilmalar (masalan, so'z birikmasi) uchun ham xosdir. Shuning uchun ham V.G. Admoni modallikni ikkiga- gapga xos bo'lgan modallik, so'z birikmasiga xos modallikka bo'linadi. Ikkinchidan, gap sathida qaralayotgan modallik predikativlikning tarkibiy elementidir. Predikativlik gap orqali ifodalanayotgan axborotning obyektiv reallikka munosabatini umumiy tarzda bildirsa, modallik gap mazmunining so'zlovchi nuqtai nazaridan obyektiv borliqqa munosabatini yoki so'zlovchining gap mazmuniga munosabatini bildiradi. munosabatini yoki. Har ikki tipdagi modallikda ham subyektivlik belgisi alohida o'rin tutadi.

Mantiqiy va grammatik modallik

Bu muammo faqat lingvistika uchungina emas, balki mantiq uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'langan til hodisalari qatoriga kiradi. Shuning uchun modallik ham tilshunoslikning, ham mantiqning tekshirish obyektidir. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi sifatida qaralsa, ikkinchisida tafakkur shakli sifatidagi hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi. Shunga ko'ra V.3.Panfilov til kategoriyasi bo'lgan modallikni mantiqiy kategoriya bo'lgan modallik bilan bog'lab o'rganish lozimligini ko'rsatadi. V.3.Panfilov gap orqali ifodalanadigan hukmning ikki sathi mavjudligini ko'rsatadi. Ulardan birinchisi hozirgi shakliy mantiq tomonidan ajratiladigan propozitsional funksiya sifatidagi hukm. Propozitsional funksiya sifatidagi hukm strukturasi N o'rinli predikat va uning argumentlari munosabatidan iborat. Bunday hukm strukturasi ikki qismdan (agar predikat bir o'rinli bo'lsa) yoki uch va undan ortiq qismdan (agar predikat ko'p o'rinli bo'lsa) tashkil topadi.

Gapda ifodalangan hukm strukturasi sathi an'anaviy shakliy mantiqning o'rganish obyekti bo'lgan subyekt-predikat strukturadir ($S + P$ formulasi). Agar propozitsional funksiya sifatidagi hukm obyektiv reallikdagi obyektiv aloqalarni aks ettirsa, subyekt-predikat struktura sifatidagi hukmda esa bilish jarayoni aks

etadi. subyekt predikat strukturasi va vaziyatning bir fikr predmeti sifatida, ikkinchi qismi unga predikatsiyalanayotgan belgi sifatida" ajratiladi. Shunday qilib, hukmning subyekt-predikat struktura sathida bilish jarayonining yo'nalishi ya'ni uning subyektiv tomonini aks etadi . Hukmning bu ikki sathdagi strukturasi gap strukturasi ham o'zining shakliy ifodasiga ega: ulardan birinchisi gapning sintaktik bo'linishlari orqali (ya'ni sintaktik struktura, elementlari orqali), ikkinchisi esa logik-grammatik yoki aktual bo'linish orqali ifodalanadi.

Demak, modallik gapning aktual bo'linishi bilan chambarchas bog'langan. Anglashiladiki, ma'lum bir vaziyatning o'zi hukmning bir necha xil subyekt-predikat strukturasi bilan va, shunga muvofiq, gapning turli logik-grammatik bo'linishi bilan aks etadi. Bunda esa inson bilish faoliyatining aktualligi ko'rinadi. Modallik ostida gapning subyekt bilan bog'liq bo'lgan turli ma'nolari tushunilar ekan, avvalo, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) obyektiv (antologik) va 2) subyektiv modallik. Ularning birinchisi bilish akti yo'naltirilgan ma'lum bir voqeadagi mavjud obyektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiylik, zaruriylik). Ikkinchisi esa bu aloqalarni bilish darajasiga ko'ra so'zlovchining munosabati (bahosi)ni ifodalaydi. Obyektiv modallik gapning sintaktik bo'linish sathida o'z ifodasini topadi . Uning shakliy ko'rsatkichlari: 1) fe'l mayllari (shart-istak, buyruq, shartli, ijro va boshq.); 2) maxsus modal fe'llar: xohlamoq, istamoq va boshq.; 3) leksik vositalar: kerak, lozim, darkor, majbur, zarur va boshq. Obyektiv modallik, o'z navbatida, turli ma'nolarni o'z ichiga oladi: 1. Gapda ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati. Bu fe'l mayllari va intonatsiya (nominativ so'z-gaplarda) orqali ifodalanadi va gap mazmunining real (noreal) ekanligini farqlaydi .2. Subyektning "o'z" harakatiga munosabati. Bu modallik to'rt subkategoriyani birlashtiradi: 1) aniqlik. Nol ko'rsatkich bilan xarakterlanadi; 2) mumkinlik, "imkoniyati borlik, *Olmoq, bo'lmoq* ko'makchi fe'llari orqali ifodalanadi. Mas: Bu niyatni amalga oshirsa bo'ladi (oshirib bo'ladi). U institutda o'qiy oladi va boshq.; 3) zarurlik, majburlik. Modallikning bu ma'nosi *kerak, lozim, darkor, zarur* singari so'zlar orqali ifodalanadi. Mas: Men o'qishim kerak; 4) xohish-istak. Bu ma'no maxsus

modal fe'llar orqali (*xohlamoq, istamoq* va *boshq.*) ifodalanadi. Mas: Men o'qishni istayman. Yuqorida sanab o'tilgan barcha modallik turlari obyektiv modallikka oid bo'lib, diktunga, V.3.Panfilov konsepsiyasiga ko'ra esa propozitsional funktsiya sathiga oiddir. Subyektiv modallik gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga (V.3.Panfilov konsepsiyasiga ko'ra logik-grammatik sathga) kiradi. Subyektiv modallik kirish so'z funktsiyasida kelgan maxsus modal yoki modal vazifasidagi boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik orqali, o'z navbatida so'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari namoyon bo'ladi: ishonch (*albatta, kelaman*), tasdiq (*to'g'ri, kelaman*), gumon (*ehtimol, kelarman*), achinish (*afsus, kelaman*) va *boshq.* Subyektiv modallik fakultativ xarakterga egadir.

Shunday qilib, sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o'rni va subyektivning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga -obyektiv va subyektiv modallikka bo'linadi. Obyektiv modallik. gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy belgi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. Shuning uchun ham u gapning asosiy belgisi emas. Ko'rinib turibdiki, so'zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsional munosabati va subyektiv modallik garchi gapning aktuallashtiruvchi qismlari bo'lsa ham, ularning tabiati va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik planda "turli sathlilik", semantik planda so'zlovchining "munosabatini ifodalash" belgisi ostida birlashtirish mumkin xolos.

Agar propozitiv (nominativ) va modal aspektlar gapning in'ikos etish semantikasini, uning denotativ va signifikativ mazmunini aks ettirsa, kommunikativ plan, birinchidan, so'zlovchining kommunikativ niyatini, ya'ni shu gapdan ifodalangan obyektiv mazmun elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilashni (aktual bo'laklarga ajratish) hamda darak, so'roq, buyruq ifodalanishini, ikkinchidan presuppozitsiya axborotini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, til birligi sifatida gap semantikasiga faqat nominativ plan - propozitsiya plani oiddir.

Kommunikativ plan esa jumla semantikasining, demak ya'ni, nutq semantikasining predmetidir .

Aktual tuzilishi.

Har qanday sintaktik qurilma gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari kommunikativ maqsadni ham ifoda etishi kerak. Masalan, *Peter hat Klavier gespielt* jumlasida umumiy tuzilish - propozitsiya ifodalanishidan tashqari, so'zlovchining kommunikativ niyati ham ifodalangan. Bu o'rinda so'zlovchining niyati Peterning harakati haqida ma'lumot berishdir. Shuning uchun ham *Was hat Peter gemacht?* so'rog'iga javob bo'ladi. *Klavier hat Peter gespielt* jumlasida esa so'zlovchining kommunikativ niyati kimning ketganligi haqida ma'lumot berishdir. *Wer hat Klavier gespielt?* so'rog'iga javob bo'ladi. *Peter hat Klavier gespielt* jumlasida esa so'zlovchining kommunikativ niyati yana boshqa harakatning yo'nalishi haqida ma'lumot berishdir. Bu o'rinda *Was hat Peter gespielt?* so'rog'iga javob bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, jumlani tashkil etgan sintaktik elementlar ma'lum sintaktik vazifani bajarish bilan birga, so'zlovchining kommunikativ niyatini ifodalab kommunikativ vazifa bajarish uchun ham xizmat qiladi. Jumlaning kommunikativ vazifasi nuqtai nazardan tuzilishi uning aktual tuzilishi hisoblanadi. Kommunikativ (aktual) vazifa nuqtai nazaridan jumlani tashkil etuvchi elementlar tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlarga bo'linadi. Jumlaning rema qismi kommunikativ eng ahamiyatli qism - kommunikativ markaz hisoblanadi. Savol gapning shu kommunikativ markazini-remani aniqlash uchun beriladi. Jumlaning tema qismi avvaldan ma'lum bo'lganligi uchun savolda ham aynan takrorlanadi. Shunga ko'ra, birinchi holatda (*Was hat Peter gemacht?* so'rog'iga javob bo'lganda) *Peter* - tema (ma'lum), *hat Klavier gespielt* - rema (yangi), ikkinchi holatda (*Wer hat Klavier gespielt?* so'rog'iga javob bo'lganda) *hat Klavier gespielt* - tema (ma'lum), *Peter* - rema (yangi); uchinchi holati (*Was hat Peter gespielt?* so'rog'iga javob bo'lganda) *Peter hat gespielt*- tema (ma'lum). *Klavier* - rema (yangi) hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, jumla kommunikativ (aktual) jihatdan doimo ikki qismdan - tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlardan tashkil topadi. Bu jihatdan sintaktik strukturaning an'anaviy bosh bo'laklariga

o'xshaydi. Ba'zan ularga teng kelishi mumkin: tema - egaga, rema - kesimga. Ammo tema-rema va egakesim bo'linishlari o'zaro munosabatda bo'lgan boshqa-boshqa tuzilishlar bo'linishi bo'lganligidan, ular birbiridan tubdan farq qiladi. Sintaktik tuzilish elementlari bosh bo'laklardan tashqari, yana boshqa bo'laklardan ham tashkil topsa, kommunikativ tuzilish doimo ikki elementdan - kommunikatsiya predmeti - tema va tema haqida ma'lumot beruvchi kommunikativ markaz - remadan tashkil topadi.

Aktual bo'laklarni ifodalash uchun tilshunoslikda turli xil terminlardan foydalaniladi. Masalan, asos va yadro (Matezius), ma'lum va yangi (Krushelnitskaya), asos va predikatsiyalanuvchi qism (Raspopov) va boshq. Shuningdek, mantiqiy subyekt va mantiqiy predikat, ruhiy subyekt va ruhiy predikat, mazmuniy subyekt va mazmuniy predikat terminlari ham ishlatiladi. Tema va remalarga bo'linishning aktual bo'linish hisoblanishining sababi shuki, so'zlovchi uchun bu bo'linish aktual, faqat shu kontekst uchun, yoki shu vaziyat uchun xos bo'lgan bo'linishdir. Yuqoridagi *Peter hat Klavier gespielt* jumlasining uch xil bo'linishi shuni ko'rsatadiki, aloqa-aralashuvning konkret vaziyatiga qarab so'zlovchi o'z oldiga turli xil kommunikativ vazifa qo'yadi. Tilshunoslikda bunday bo'linish aktual bo'linish terminidan tashqari, boshqa bir qator terminlar bilan ham ifodalanadi: Kommunikativ bo'linish, kontekstual bo'linish, tema-rematik bo'linish, jumlaning funksional yo'nalishi, jumlaning kommunikativ yo'nalishi, logik grammatik bo'linish va boshqalar.

Bir sintaktik tuzilishning aktual bo'linish jihatdan turli variantlari shu sintaktik qurilmaning aktual bo'linish paradigmasi hisoblanadi. Jumlaning paradigma a'zosi sifatidagi xarakteristikasi ushbu jumlaning sintagmadagi pozitsiyasiga bog'liq bo'ladi. Aktual bo'linish paradigmasining bosh a'zosi sintaktik bo'linish bilan mos keladi: sintaktik tuzilish egasi (yoki ega guruhi) aktual bo'linish temasi, sintaktik tuzilish kesimi (yoki kesim guruhi) aktual bo'linish remasi bo'lib keladi. Masalan, *Der Lehrer hat den Studenten unterrichtet* jumlasida sintaktik ega pozitsiyasida kelgan o'qituvchi - tema sintaktik kesim pozitsiyasida kelgan dars o'tdi bo'lagi o'zi ergashtirib kelgan o'quvchilarga bo'lagi bilan birga - rema. Tema

axborot predmeti hisoblanadi. Shuning uchun ham tema uchun eng xarakterli so'z turkumi predmet ma'nosini bildiruvchi so'zlar sanaladi. Temaning tipik ifodalanish usuli ega va ega guruhidir. Rema tema haqida ma'lumot beradi. Demak, rema uchun eng xarakterli so'z turkumi belgi bildiruvchi so'zlar bo'ladi. Remaning tipik ifodalanish usuli kesim yoki kesim guruhi hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, ega va ega guruhining oldin kelishi, kesim va kesim guruhining keyin kelishi, kontekst shart-sharoitidan qat'i nazar, tema-rematik munosabatni ko'rsatishga eng muvofiq holati hisoblanadi. Qismlari bunday tartibda joylashgan jumlar umumiy hukmni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday tartib kontekst bilan bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun bunday jumlar kontekstual, yoki sintagmatik mustaqil jumlar hisoblanadi. Kontekstda bunday jumla mustaqil pozitsiya egallaydi.

Kontekst sintaktik va aktual bo'laklarning yuqoridagidek munosabatini buzib yuborishi mumkin. Natijada aktual bo'linish paradigmasining boshqa a'zosi hosil bo'ladi. Bu vaqtda belgi bildiruvchi so'zlar predmet bildiruvchi so'zlar tema bo'lib kelishi mumkin. Bunday holat, odatda, tema mazmuni kontekst yoki vaziyat orqali ma'lum bo'lganda sodir bo'ladi. Yuqoridagi kabi jumlar kontekst yoki vaziyat bilan aambarchas bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bunday jumlar kontekstual yoki sintagmatik tobe jumlar hisoblanadi. Kontekstda bunday jumlar sintagmatik tobe pozitsiyani egallaydi.

Shunday qilib, jumlaning aktual bo'linish paradigmasi sintagmatik mustaqil va sintagmatik tobe jumlarni o'z ichiga oladi. Odatda sintagmatik mustaqil jumlar paradigmaning boshlang'ich a'zosi - invarianti hisoblanadi. Sintagmatik mustaqil va sintagmatik tobe jumlar savol sistemasi orqali ham aniqlanishi mumkin.

Sh.Balli savollarni diktal va modal so'roqlarga ajratadi va ularni o'z navbatida yana ikkitadan qismga ajratadi: 1) to'liq diktal, 2) qisman diktal so'roqlar va 1) to'liq modal, 2) qisman modal so'roqlar. Diktal so'roqlar jumla orqali bayon qilinayotgan obyektiv mazmunga (diktumga) aloqador bo'lsa, modal so'roqlar jumla mazmunining obyektiv borliqqa munosabatiga (modusiga) aloqadordir. To'liq so'roqlar butun bir jumlagi, qisman so'roqlar shu jumlaning bir qismiga

aloqador bo'ladi. Xususan, to'liq diktal so'roq jumlaning umumiy mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bu so'roqqa jumlaning umumiy mazmuni javob bo'ladi. Qisman diktal so'roq esa shu jumla tarkibida ma'lum bir qismda ifodalangan mazmuni aniqlashga qaratiladi. Jumlaning boshqa qismi esa so'zlovchiga ma'lum bo'ladi. Bu so'roqqa shu jumlaning ma'lum bir qismi - axborot tashishda ahamiyatli qismi javob bo'ladi. Masalan, *Wer hat gelesen?* so'rog'ida kimdir o'qiganligi ma'lum, ammo kim o'qiganligi noma'lum. Shu noma'lum, javob talab qiladigan qism yangi axborot tashishda ahamiyatli hisoblanadi. To'liq modal so'roq jumladan anglashilgan mazmunning ob'ektiv reallikka munosabatini aniqlash uchun beriladi. So'roq maqsadi jumladan anglashilgan mazmunning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash bo'ladi. Tasdiq yoki inkor javobni talab qiladi. Qisman modal so'roq shu jumlaning ma'lum qismidan anglashilgan shubha ostidagi mazmuni aniqlash uchun beriladi. Masalan, *Hat Peter Klavier (?) gespielt?* Javob-Ja, *Klavier*, yoki: *Nein, nicht Klavier*.

P.Adames savolning yuqoridagi turlaridan qaysi biriga javob bo'lishiga qarab; jumlaning to'rt xil aktual turini belgilaydi. 1. Umum axborotli jumlar. Bunday jumlar umumdiktal so'roqlarga javob bo'ladi va aktual axborot gapning umumiy mazmuniga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham aktual bo'lak sintaktik bo'lakka muvofiq keladi. 2. Qisman axborotli jumlar. Bu tipdagi jumalarda obyektiv mazmunning ma'lum qismi haqida ma'lumot beriladi. Qolgan qismi oldingi gaplardan ma'lum, deb tasavvur qilinadi. Bunday jumalarda aktual axborot obyektiv mazmunning bir qisminigina o'z ichiga oladi. Shuning uchun u ma'lum kontekstni talab qiladi. Undan tashqari matndan uzib olinganligi sezilib turadi, kontekstual tobe bo'ladi. 3. Umum munosabatli jumlar. Bunday jumlar yangi xabar emas, balki suhbatdoshning fikriga so'zlashuvchining reaksiyasi, munosabatini ifodalaydi. Umum munosabatli jumalarda obyektiv mazmunning realligi aks etadi. Bunday jumalarning asosi inkor yoki tasdiqlik bo'ladi. Masalan, *Peter ist nicht gekommen. Wir sind Studenten*. 4. Qisman munosabatli jumlar.

Bunday jumalarda butun bir jumla mazmunining realligi emas balki uning ma'lum bir aspektining realligi aniqlanadi. Masalan, *Nur Peter ist gekommen*.

Aktual bo'laklar sintaktik bo'laklarga muvofiq keladigan sintagmatik mustaqil jumlar umumaxborotli jumalarga mos keladi va to'liq diktal so'roqlarga javob bo'ladi. Aktual bo'laklar bilan sintaktik bo'laklar muvofiq kelmaydigan sintagmatik tobe jumlar qismanaxborotli va qismanmunosabatli jumalarga mos keladi va qismandiktal hamda qismanmodal so'roqlarga javob bo'ladi. Shunday qilib, so'roq tiplari sintagmatik mustaqil sintagmatik tobe jumalarni ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lum bir jumlaning tema va remalarga ajratishda ham so'roq xizmat qiladi. So'roqda mavjud bo'lgan axborot temaga oid, so'roq orqali aniqlanadigan axborot esa remaga oid bo'ladi. Masalan: *Peter hat Klavier gespielt* qurilmasida *Was hat Peter gemacht* ?so'rog'i temani hosil qiluvchi jumla qismini (Peter o'zida aks ettiradi. So'roqqa javob bo'lgan qism (hat Klavier gespielt) rema hisoblanadi.

Jonli so'zlashuv nutqi (dialog) xususiyatlari

Oxirgi yillarda modallik kategoriyasining funksional aspektida til va nutqda ifodalanishi masalasiga alohida e'tibor berilmoqda . V.G. Gak tomonidan modallik kategoriyasining adabiy va so'zlashuv til normalarida qo'llanishi fransuz tili misolida o'rganilgan. Modallik kategoriyasi masalasi tilshunoslikning doimiy muammolaridan biri - til va tafakkur munosabatlarning bir ko'rinishi. Tilni kommunikativ uslub bo'yicha rivojlanirish borasida hozirgi davrda bir qator olimlar o'zlarining nazariy fikrlarini asoslash hamda til yo'nalishining aynan funksional tomonini takomillashtirishga intilmoqdalar.

So'zlashuv nutqi uslubi muammolarini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. So'zlashuv uslubining yashash shakli - og'zaki formadir. Og'zaki uslub so'zlashuv nutqi kommunikativ funksiyasida yetakchi omildir. Og'zaki nutq kishilarning nutqiy faoliyatini moslashtirish va uyushtirish, amaliy nutq bo'lishi, nutqiy ifodaliligi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar yozma nutqda har doim o'z ifodasini topavermaydi. So'zlashuv nutqi tovush bilan talaffuz etiladigan bevosita eshituvchiga, suhbatdoshga qaratilgan, qayta ishlash, tuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan nutqdir. So'zlashuv nutqi uslubi tildagi tayyor shakl va birliklardan foydalanadi. So'zlashuv nutqi uslubi voqea- hodisalarning ta'sirli chiqishi uchun turli ekstralingvistik omillardan, emotsionallik va ekspressivlikni oshirish uchun

turli xil takrorlardan, tartib o'zgartirishlaridan foydalanadi. Ana shu imkoniyatlardan biri bo'lgan bo'laklarning gapdagi tartibi so'zlashuv nutqi uslubida erkindir. Ushbu uslubda adabiy tildagidek, ega avval, kesim esa doim gap oxirida kelavermaydi. Ularda bu tartibning o'zgarishi faol qo'llaniladi. Bu narsa so'zlovchi shaxsning e'tiborsizligi, ehtiyotsizligidan emas, balki so'zlashuv nutqi uslubining o'ziga xos xususiyatlari negizida sodir bo'ladi. So'zlashuv nutqiga xos belgi va xusuiyatlar so'zlashuv uslubining mohiyati va mazmuninigina emas, balki ushbu nutq uslubining yuzaga kelish sabab va yo'llarini, vositalarini ham ko'rsatadi.

So'zlashuv uslubining alohida lisoniy alomatlariga ega ekanligi so'zlashuv nutqi doirasida boshqa uslublarga xos til birliklarining ishtirok etishiga qarshilik ko'rsatmaydi. Garchi so'zlashuv nutqida barcha funksional uslublarga xos morfologik birliklar ishtirok etsa-da, ular bilan so'zlashuv uslubi o'rtasida tenglik alomatini qo'yib bo'lmaydi. Aniqlik, ta'sirchanlik va mantiqiylik kabi nutqiy talablar har bir funksional uslubda, jumladan so'zlashuv uslubida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. So'zlashuv nutqida barcha morfologik shakllarning keng ko'lamda amal qilishi ulardagi ko'plab grammatik-stilistik ma'nolarning ro'yobga chiqishiga sabab bo'ladi va ana shu ma'nolar doirasida uslubiy chegaralanish, xususan so'zlashuv uslubiga xoslanish ham yuz beradi. Masalan, yordamchi so'zlardan yuklamalarda ekspressivlik kuchli va shunga ko'ra so'zlashuv uslubiga moyillik seziladi. Shu bilan birga ko'makchilar va bog'lovchilarning ayrimlarida so'zlashuv uslubiga xoslanish aniq bilinib turadi.

M.T.Abdukarimovich so'zlashuv nutqining 3 qatlamini farqlaydi:

- Adabiy-rasmiy so'zlashuv nutqi
- Kundalik standart so'zlashuv nutqi
- Substandart so'zlashuv nutqi

Adabiy-rasmiy so'zlashuv nutqi - ommaviy axborot vositalari, ya'ni radio, televideniye suxandonlari va dasturlarni olib boruvchilarning nutqi, rasmiy uchrashuvlar, konferensiya, simpozium va shu kabi yig'inlarda ishlatiladigan nutq shakllari.

Kundalik standart so'zlashuv nutqi - norasmiy vaziyatlarda so'zlovchilar tomonidan qo'llaniladigan variant bo'lib, undan jamiyatning aksariyat qismi foydalanadi.

Substandart so'zlashuv nutqi odatda jamiyatda savodsiz yoki ma'lumoti kam shaxslar tomonidan ishlatiladigan nutq shakli bo'lib, unda til informatsiyasining buzilishi bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

So'zlashuv nutqida mavjud leksik muammolarni muhokama qilish til orqali bajariladigan muomalaning maqsadi va vazifalarining tabiatini tushunishga urinishni bildiradi. Ma'lumki, so'zlashuv nutqining eng asosiy belgilaridan biri bu emotsionallikning yuqoriligidir. Emotsionallik tabiati nutq o'rni, payti va maqsadiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Agar so'zlashuv o'zaro bir-birini yaxshi biladigan, keng so'zlashuv tajribasiga ega bo'lgan shaxslar orasida kechayotgan bo'lsa, so'zlashuvda yanada xususiyroq, umumiy so'zlar va iboralar, tanish grammatik qurilmalar deyarli bir xil sintaktik qurilmalardan foydalaniladiki, bunda gapiruvchi va tinglovchi o'rtasida o'zaro bir-birini to'liq tushunish imkoniyati yuzaga keladi.

So'zlashuv nutqini xarakterlashda ko'zga tashlanadigan ikki tomon mavjuddir, deb ta'kidlaydi B. O'rinboyev. Uning fikricha, bulardan biri dialog bo'lsa, ikkinchisi monologdir. *Dialog* asli yunoncha "dialogos" (gaplashish, suhbatlashish) so'zidan olingan bo'lib, "shaxslararo suhbat va fikr almashuv" degan ma'noni ifodalaydi. Dialog og'zaki nutqning nutq jarayonida bir yoki bir necha kishi ishtirok etgan nutqiy aloqaning muhim shaklidir. Darhaqiqat, kishilar ijtimoiy turmushning barcha sohalarida - oilada, ishlab chiqarish jarayonida, jamoat joylarida, ko'cha-ko'ya fikr almashuvning muhim shakli bo'lmish dialogdan foydalanadilar. Tabiiy zarurat tufayli kishilar bir-biri bilan turli munosabatda bo'ladi. Bu munosabat esa bir butunligicha jonli so'zlashuv nutqi va uning bir shakli bo'lgan dialog orqali amalga oshadi. Dialog nutqning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari quyidagilar:

- Nutqda ikki yoki undan ortiq kishining ishtiroki;
- Nutq sur'atining nisbatan tez bo'lishi;

- Fikrni tez anglab javob qaytarish;
- Nutq vaziyati;

Fikrning voqelikka bog'liqligi, so'zlovchi va suhbatdoshning fikrga munosabati.

Dialoglar muayyan sharoit taqozosi tufayli mazmun asosida qurilishi sababli, ularda nafaqat leksik ma'no, balki modal ma'no ham o'z aksini topadi. Nutq jarayonida tinglovchi ishtirok etmasa, nutq mahsuloti kommunikatsiya vazifasini bajara olmaydi va kommunikatsiya umuman sodir bo'lmaydi. So'zlashuv nutqi odatda spontan xarakterga ega, yani u avvaldan tayyorgarliksiz amalga oshiriladi. Nutq faoliyatida uzoq o'ylab o'tirishga umuman vaqt yo'q. Shuning uchun nutq mahsulining sifati til nuqtai nazardan notekis bo'ladi, ya'ni qisqartirilgan grammatik shakllar, sodda va bir a'zoli gaplar, elliptik gaplar va hokazolar ko'p uchraydi.

Biror tilda gaplashadigan kishilarning nutqi bir-biridan farq qilishi mumkin va odatda farq qiladi ham. Ayrim kishilar nutqida hamisha qandaydir yangi fonetik, leksik, ba'zan grammatik xususiyatlar paydo bo'lib turadi. Bu xususiyatlardan ba'zi birlari asta-sekin shu tilga kirib boradi, boshqalari esa ma'lum bir til taraqqiyotining umumiy yo'liga zid bo'lganligi uchun o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi. Har qanday neologizm dastavval nutqda paydo bo'ladi. Agar bu yangilik mazkur tilda gaplashuvchilarning aksariyati tomonidan qabul qilinsa, u til tizimiga kiradi. Tilning shu tilda gapiruvchi kishilar nutqida uzoq vaqt ishlatilmagan elementlari arxaizmga aylanib qoladi.

So'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklarining tartibi ularning kommunikativ (aktual) vazifasiga bog'liq. So'zlashuv nutqi uslubining grammatik xususiyati bevosita muloqot, intonatsiya va ekstralingvistik belgilar bilan xarakterlanadi. Bu belgilar dialogik muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Dialogda bo'laklar tartib

bayon qilinayotgan gapda qaysi bo'lak muhim bo'lmagan xabarni ifodalashiga qarab belgilanadi.

Agar gapda ega va kesim asosiy birlik bo'lsa, fikrning boshlang'ich dastlabki qismi - yangi xabarni ifodalovchi qismdan iborat bo'ladi. Gapda qaysi bo'lak fikrning ma'lum va muhim qismi hisoblanishi vaziyatga bog'liq bo'lsa, ular tartib orqali namoyon bo'ladi. Tartibda avval fikrning ma'lum qismi, undan keyin esa asosiy fikr ifodalangan bo'lak keladi. Lekin bu holat doim inversiya yo'li bilan yuzaga chiqmaydi, balki to'g'ri tartib orqali ham ifodalanishi ham mumkin.⁴³ Gapning har bir bo'lagi nutqda sintaktik va kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qiladi.

So'zlashuv nutqi jarayonini yaratish kommunikatsiya aktining shartlari tomonidan belgilanadi. Kommunikatsiya bo'lib o'tayotgan shart-sharoit, rasmiylik-norasmiylik darajasi, tinglovchi qiziqishining mavjudligi, so'zlashuv aktidan manfaatdorligi- manfaatdor emasligi kabi omillar nutq aktining sodir bo'lishi, uning xarakterini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu o'rinda nemis tili dialogik nutqining rang-barangligi haqida aytib o'tishimiz joizdir. Modallikni nemis tili og'zaki nutqida qaysi vositalar yordamida yuzaga chiqarilishi, og'zaki nutq modal birliklari qanday tahlil qilinishi hali hanuzgacha tilshunos olimlarning diqqat markazida turgan masalalaridan biridir. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.Y. Shokirovaning bir maqolasida shunday fikrlar keltirib o'tilgan: "Biror suhbatdoshga ma'lum qilinayotgan nutqda inson his-tuyg'ulari ifodasi va bayon etilgan fikrning modal bo'yoqdorlik tashuvchisi sifatida eng ko'p modal yuklamalarni uchratish mumkin. Bunday ifodalarda kontekstning rolga ahamiyat qaratish kerak, chunki modal yuklamalar butun gap yoki umumiy nutq vaziyatiga taaluqli bo'ladi. Nemis tilidagi yuklamalar asosan og'zaki, kundalik nutqda qo'llaniladi." Helbigning fikriga ko'ra, matn qanchalik muloqot nutqiga xos bo'lsa, u qoidaga ko'ra shunchalik modal yuklamalarga boy bo'ladi. Nemis tilini o'rganishda asosiy qiyinchilik tug'diradigan nuqta ham bu - modal yuklamalar tarjimasini hisoblanadi. Asosan hikoyalardan tashkil topgan yoki ko'p dialoglarni o'z ichiga olgan nemis badiiy matnlarini o'quv jarayonida

tarjimasida talabalar matnda uchragan modal yuklamalarni yoki noto'g'ri tarjima qilishlari yoki ko'pincha shunchaki tashlab ketishlariga guvoh bo'lyapmiz. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida nemis -o'zbek lug'atlarida keltirilgan modal yuklamalar tarjimasida tarjima qilinayotgan kontekstga mos kelmasligidadir. Aslida ham shunday: yoki ko'p yuklamalarning tarjimasida yo'q yoki keltirilgan tarjima varianti haqiqatan ham kontekstga mos kelmaydi. Agar o'zbek tilida tarjima muqobili mavjud bo'lmasa, huddi taom tuzsiz, murchsiz, ko'katsiz ta'mga ega bo'lmaganidek original matn tarjimasida subyektiv aksentini yo'qotadi. Modal yuklamalar so'zlovchining verbal holatga, jarayon va vaziyatga munosabatini bildiruvchi epistemik modallikni ifodalaydi, masalan: taxmin, umid, ehtimollik, ishonch. Ular matnning muloqot signallari hisoblanib, asosan suhbatdoshga kuchli bog'liqdir. Nemis matnlarini o'zbek tiliga berayotganda modal yuklamalarni kontekst va vaziyatga ko'ra talqin etish kerakligini hisobga olish o'ta muhimdir. Nemis modal yuklamalari muammosiga chuqurroq aniqlik kiritish lozim. Bu borada nemis og'zaki nutqiga qaraganda, o'zbek og'zaki nutqining o'rganilganlik darajasi yetarli emasligini hisobga olsak, haqiqiy so'zlashuv nutqini tadqiq qilish imkoniyati chegaralanganligiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham, soxta (fiktiv) og'zaki tilni asos qilib olishimizga to'g'ri keladi. Zero, V. Vinter o'zining "Sof va o'zgargan so'zlashuv tili" nomli maqolasida shunday deydi: soxta (fiktiv) so'zlashuv tili qamrov jihatdan tabiiy so'zlashuv nutqining almashishiga xizmat qiladi.

Soxta (fiktiv) so'zlashuv tili tabiiy tilning tadqiq etish imkoniyati mavjud bo'lgan yozma aksidir. Dialoglardagi modallikni biz nemis tili badiiy asarlaridagi fiktiv so'zlashuv tili misolida tahlil qilishga harakat qildik. Albatta bunda biz so'zlovchi va tinglovchini jonli ko'rish, eshitish, qisqa qilib aytganda modallikni ifodalovchi fonetik yoki ekstralingvistik vositalarni jonli muloqotga qaraganda idrok etish imkoniyatidan mahrummiz. Ammo kontekstning o'zi bizga ma'lum signallar (yuklamalar, muallif sharhi, muloqot holatini tasvirlash) beradi va biz shu signallar orqali modal ma'noni tezda anglab olamiz.

3-Bob. Nemis tili dialogik nutqida modallikni ifodalash usullari va uning o'zbek tiliga berilish imkoniyatlari.

Dialogik nutqda asosan subyektiv modallik ifodalanadi. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, subyektiv modallik deganda so'zlovchining xabar qilinayotgan hodisaga munosabatini tushunamiz. Bu esa o'z aksini yaqqol dialoglarda topadi. Boshqa modallik singari subyektiv modallik ham, eng avvalo, aniq voqea-hodisalarga emotsional ifoda, reaksiyani imkon qadar ko'rsatib beruvchi, semantika va leksemaning leksik birliklari, ya'ni leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Bunday birliklarning qamrovi juda keng bo'lib, har bir talabga tanish bo'lishi kerak. Modallik semantik kategoriyasini olimlarning nazariy qarashlariga asoslanib bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

- Gapning kommunikativ funksiyasiga ko'ra: *darak, so'roq, buyruq.*
- So'zlovchining gap mazmunini baholashiga ko'ra: *real va noreal.*
- Voqelikning subyekt yordamida ifodalanishiga ko'ra: *ehtimollik, zaruriyat, xohish-istak.*
- Voqelikka qaratilgan munosabatga yondashuvga ko'ra: *tasdiq va inkor.*
- So'zlovchining voqelikka ishonchlilik darajasiga ko'ra: *ishonch, ikkilanish, ishonchsizlik.*
- So'zlovchining his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishiga ko'ra: *quvonch, qayg'u, hayrat, havotir, uyat, qo'rqinch, achinish, qiziqish.*
- Konnotativ modal ma'nolarni ifodalashiga ko'ra: *sevish, erkalash, hurmat, kichraytirish, kamsitish.*
- Subyektning reaksiyasiga ko'ra: *tanbeh, talab, ruhsat (ijozat), taklif (maslahat), mamnuniyat..*

Dialogik nutqdagi yuqorida keltirilgan modal ma'nolarni biz faqatgina faktik til materiali zaminida turli tillarda qo'llanishi va ifodalanishini kuzatishimiz mumkin. Bizning holatda bu aynan nemis va o'zbek tillaridagi modallik kategoriyasining qiyosiy tahlilida namoyon bo'ladi.

3.1. Voqelikning so'zlovchi yordamida ifodalanishiga ko'ra modal ma'nolar.

So'zlovchi(subyekt)ning gapda ifodalangan voqeliklarni baholashida yuzaga keladigan turli semantik ma'nolar asosan sintaktik va leksik vositalar yordamida ifodalanadi.

Ehtimollik (taxmin) modalligi.

Nemis tilida taxmin modalligi bir qator vositalar yordamida ifodalanadi. Fonetik vosita hisoblanuvchi intonatsiya gap modalligini ifodalashda eng muhim belgi sanaladi. Zero, birgina intonatsiya orqali har qanday gapning ma'no-mazmunini tubdan o'zgartirib yuborish mumkin. Leksik vositalardan modal yuklamalar: *vielleicht, wahrscheinlich, vermutlich, kaum, denn, oder*; modal fe'llar: *können, dürfen, sollen, müssen; werden* yordamchi fe'li; *glauben, denken, hoffen, scheinen, ansehen* mustaqil fe'llari hamda sintaktik vositalardan *nicht wahr? doch... oder?* kabi sintaktik qurilmalar va infinitiv konstruksiyalar orqali beriladi. O'zbek tilida esa *balki, shekilli, aftidan, chog'i, kerak* modal so'zlari; *o'ylamoq, o'xshamoq* mustaqil fe'llari ; *shundaymasmi?, kerak-a?* kabi so'roq yuklamali so'zlar; shuningdek, fe'lga kelasi zamon gumon shakli qo'shimchalari - *ar(r)ni* qo'shish orqali hamda *bo'lmoq(shart maylida)+kerak, -sa+kerak* sintaktik qurilmalari orqali ifodalanadi.

Ehtimollik (taxmin) ma'nolarini ifodalab kelgan misollar:

1. *Vielleicht* gefällt das ein paar Leuten in Leipzig auch nicht.

Balki bu holat Laypsigdagilarga ham yoqmas.

Ushbu gapda birgina *vielleicht* modal yuklamasining o'zi gapning butun mazmunini o'zgartirib yubordi va unga ehtimoliy tus berdi. O'zbek tiliga esa *balki* kirish so'zi hamda fe'lga kelasi zamon gumon shakli qo'shimchasi *-mas* ni qo'shish orqali to'g'ri tarjima qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

2. Ach, *vielleicht* wird es ein schönes Fest. *Vielleicht* ist ja alles wunderbar.

To'y chindan ham zo'r o'tadi. Hammasi ajoyib bo'ladi.

Yuqoridagi gapda esa, aslyatdagi misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak, undagi taxmin ma'nosi tarjimada qat'iy ishonch ma'nosiga almashib ketgan. Ya'ni,

bu yerda *vielleicht* yuklamasi o'zbek tiliga *chindan ham* so'zi orqali va fe'lining aniqlik maylida berilgan. Tarjima jarayonida *balki* so'zi hamda fe'lga kelasi zamon gumon shakli qo'shimchasi *-ar(r)ni* qo'shish orqali tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo'lardi, ya'ni: *Balki* zo'r to'y bo'lar. *Balki* chindan ham hammasi ajoyib bo'lar.

3. Normal, wie ein Tennisplatz eben, *denke* ich. O'rtacha, tennis maydoniga mos deb o'ylayman.

Denken mustaqil fe'li bu gapda o'zbek tiliga *o'ylamoq* fe'li orqali to'g'ri tarjima qilingan va asliyatdagi ma'no saqlab qolingan.

4. Das passt *doch* alles irgendwie ins Bild, *oder*? Bu devordagi suratlardan ayon-ku axir, shundaymasmi?

Bu gapdagi *doch...oder* so'roq yuklamali sintaktik birlik o'zbek tiliga *shunday* olmoshiga "emas" inkor to'liqsiz fe'lining qisqartirilgan *-mas* shakli va shuningdek, *-mi* so'roq yuklamasini qo'shish yordamida tarjima qilingan. Ammo *ins Bild passen* iborasi o'zbek tiliga xato berilgan. Bu o'rinda *Barchasi qandaydir xuddi tasavvur qilganimizdek, shundaymasmi?* shaklida berilishi kerak edi.

5. Ich *hoffe* doch, man sitzt am Tisch und ich kann die Schuhe ausziehen.

Stolda o'tiramiz-ku, tuflimni yechib qo'ysam bo'ladi.

Hoffen fe'li *doch* yuklamasi bilan birga kelib, qilayotgan taxmining ishonch darajasi yuqoriligini ko'rsatib kelmoqda. Ammo o'zbek tilida bu aniqlik mayli orqali ifodalanib, qat'iy ishonchni bildirarmoqda. Aslida esa quyidagi tarjima muvofiq bo'lar edi: *Stol atrofida o'tiriladi-ku, tuflimni yechib qo'ysam bo'lar*.

6. Ich *hoffe*, ich raste nicht doch noch aus. Ungacha yetib borolmasam kerak.

Bu gapda esa *hoffen* fe'li tarjimada fe'lga shart mayli qo'shimchasi *-sa* qo'shilishi va *kerak* modal so'zi orqali tarjima qilingan. Nemis tilidagi qo'shma gap tarjimada soda gapga aylangan bo'lishiga qaramay, asl ma'noni ko'rsatib berishga harakat qilingan. Ammo *kerak* so'ziga *-a* so'roq yuklamasi qo'shilib tarjima qilinganda ma'no yanada aniqroq tus olgan bo'lardi.

7. Das muss irrsinnig viel gekostet haben.

Bu ovqatlar juda qimmat bo'lsa kerak-a?

Müssen+Infinitiv II konstruksiyasi odatda taxmin aniq bir asosga ega bo'lgan holatda qo'llaniladi. So'zlovchi qilgan taxminiga aniq ishonadi, chunki fikr davom ettirilib, nega aynan shunday taxmin qilgani asoslab beriladi. Nemis tilidagi taxminni ifodalab kelgan modal fe'lli sintaktik konstruksiyalar odatda o'zbek tiliga fe'lga shart mayli qo'shimchasi *-sa,kerak* modal so'zi hamda *-a* so'roq yuklamasi yordamida to'g'ri tarjima qilinadi.

8. Ich denk, die drücken so? Siqyapti shekilli?

Denken fe'li ham hali qat'iy bo'lmagan taxminni ifodalab keladi, o'zbek tiliga *shekilli* so'zi orqali tarjima qilingan. Tarjima uchun juda mos so'z topilgan, chunki *shekilli* so'zi haqiqatan ham ushbu gapda asliyatdagi *o'ylashimcha* so'zi bilan sinonim bo'la oladi.

9. Scheint so.

Shunaqaga o'xshaydi.

Scheinen fe'li nemis tilida taxminni ifodalab keluvchi va eng ko'p qo'llanuvchi mustaqil fe'llardan biridir. Uni o'zbek tiliga turlicha tarjima qilish mumkin: *o'xshamoq, tuyulmoq, ko'rinmoq, -sa kerak, shekilli* kabi. Mazkur gapda *o'xshamoq* fe'li orqali tarjima qilingan va ma'no to'g'ri chiqarib berilgan.

10. Gut,das seh ich mir an, ich komm Heiligabend, falls da was fliegt. Yaxshi. Rojdestvodan bir kun oldin borsam kerak. Agar biror nima uchsa.

Bu gapda *ansehen* fe'li hali to'liq ishonchi komil emasligini bildirib keladi. Buni biz o'zbek tiliga *ko'rimoq* fe'lining kelasi zamonda berilishi orqali bersak ham bo'ladi, chunki bu fe'l hatti-harakatning hali noma'lum ekanligini bildirib keladi: *Yaxshi, ko'ramiz hali, agar biror nima uchsa, rojdestvodan bir kun oldin borarman*. O'zbek tiliga nemis tilidagi murakkab gap uchta sodda gap orqali tarjima qilingan. Fe'lga shart mayli qo'shimchasi *-sa*, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* modal so'zi yordamida tarjima qilingan. Shunday bo'lsa ham asliyatdagi ma'no tarjimada o'zgarmagan.

11.Die Stunden von diesem Augenblick an kann ich Ihnen kaum erzählen.

Keyin nimalar bo'lganini sizga tasvirlab berolmasam kerak.

Können fe'li odatda inkor formasida, ya'ni nicht können shaklida kelganda taxmin ma'nosini ifodalaydi. Ammo ushbu misolda *können* fe'li *nicht* inkor yuklamasi bilan emas, balki *kaum* inkor yuklamasi bilan birga kelgan. Har ikkala holatda ham taxmin ma'nosi o'z kuchini yo'qotmaydi. O'zbek tiliga fe'lga inkor qo'shimchasi -ma, shart mayli qo'shimchasi -sa, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* so'zi orqali tarjima qilingan.

12. Ich *glaube* es *zu wissen*. Bilsam kerak deb o'ylayman.

Ushbu gapda *glauben* fe'li ham, *zu+Infinitiv* ham taxmin ma'nosini ko'rsatib kelgan. Tarjimada ma'no to'g'ri ko'rsatilgan, ya'ni shart mayli qo'shimchasi -sa, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* so'zi orqali, shuningdek, *o'ylamoq* fe'li yordamida.

13. *Nicht wahr*, Doktor, nichts Bedenkliches das?

Bu unchayam jiddiy kasallik bo'lmasa kerak-a, doktor?

Nicht wahr sintaktik birikmasi ham taxminni ifodalab keladi. O'zbek tiliga fe'lga inkor qo'shimchasi -ma, shart mayli qo'shimchasi -sa, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* so'zi va -a so'roq yuklamasi orqali tarjima qilingan.

14. Sie werden mich *vielleicht* für irr halten oder für betrunken.

Siz meni mast yoki aqldan ozgan deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak.

Bu yerda *vielleicht* modal yuklamasi tarjimada o'zbek tiliga fe'lga shart mayli qo'shimchasi -sa, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* so'zi orqali ifodalangan.

15. Nur wenn Ihr auf den Zins verzichtet, können wir uns noch versünnen.
(G. St., 38 b)

Siz o'lpon olishdan voz kechsangiz, balki til topishib ketarmiz. (G. St., 36 b)

Können ...noch konstruksiyasi ham taxminni ifodalab keladi . Tarjimada *balki* yordamchi so'zi orqali berilgan.

16. In seiner Wut *hätt* ich ihm *geschiene*n, das veranlasst zu haben, was ich weder verhindern noch vorhersehen können.

Ayniqsa, uning bugungidek quturgan chog'ida, unga hech narsani tushuntirib bo'lmaydi, uningcha, buning hammasiga men yo'l qo'ygan, xavfning oldini olishni istamagan, nimalar yuz berishini bilmagan kishi bo'lardim Sie *schiennen* gestern so weit entfernt, dem Prinzen jemals wieder vor die

Augen zu kommen.

Kecha siz shahzoda bilan yuzma-yuz bo'lish niyatida emasingiz, aftidan.

Ushbu gapda *scheinen* fe'li Präteritumda kelib, shubha ma'nosini ifodalab kelgan, o'zbek tiliga *aftidan* so'zi orqali ma'no ko'rsatib berilgan.

17. Man *wird* ihn endlich doch verlassen.

Har-holda, uning oldiga kirishga ruhsat etsalar kerak.

Werden fe'li Infinitiv I bilan kelganda, ham vaqt, ham mayl vazifasini bajarib keladi. O'zbek tiliga fe'lga shart mayli qo'shimchasi *-sa*, shaxs son qo'shimchasi va *kerak* so'zi orqali tarjima qilingan.

“Xohish -istak” modalligi.

Nemis tilida xohish-istak modalligi asosan sintaktik va leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Leksik vositalardan modal fe'llar: *können*, *wollen*, *mögen*; *werden* yordamchi fe'li hamda sintaktik vositalardan zu+Infinitiv konstruksiyasi, fe'lining Imperativ shakli, *mögen* fe'lining Konjunktiv II shakli, ya'ni *müchten* va shuningdek boshqa fe'llarning ham Konjunktiv II shakli asosiy vositalar hisoblanadi. O'zbek tilida esa -sa+edi *-sa* (shart mayli qo'shimchasi) *edi*(to'liqsiz fe'lij, -ardi *-ar* (Sifatdosh qo'shimchasi) *di* (*edi* to'liqsiz fe'lining qisqartirilgan shakli).-sin *-sin*(buyruq-istak mayli III shaxs birlik qo'shimchasi), -ay deb *-ay* (Ravishdosh qo'shimchasi) *deb* (yarim bog'lovchisi) -moqchi edi +shaxs-son qo'shimchasi *-moqchi* (kelasi zamon maqsad qo'shimchasi)-*edi* (to'liqsiz fe'li) -gan+(shaxs-son qo'shimchasi+)*da edi* *-ganda* (Ravishdosh qo'shimchasi) *edi* (to'liqsiz fe'llari) orqali ifodalanadi. Shuningdek, *istamoq*, *xohlamoq* kabi mustaqil fe'llar bilan ham ifodalanadi.

Xohish-istak ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Ich *möchte* Sie gern etwas fragen... das heit, ich *möchte* Ihnen etwas

erzählen.

Sizdan bir narsa so'ramoqchi edim... to'g'rirog'i, sizga bir narsani aytib bermoqchi edim.

Mögen modal fe'li xohish-istakni ifodalab keluvchi asosiy modal fe'l hisoblanadi. Bu fe'lning preteritum Konjunktiv shakli istakning muloyimroq ifodalanishiga xizmat qiladi. O'zbek tilida *-moqchi* (kelasi zamon maqsad qo'shimchasi)-edi (to'liqsiz fe'li orqali berilgan).

2. Vielleicht *wäre* es da am besten, gnädige Frau, ich *nähme* eine allgemeine Untersuchung *vor*...

Xonim, sizni tekshirib ko'rsam yaxshi bo'lardi...

Fe'llarning Konjunktiv II shaklida berilishi ham ba'zan istakni ifodalab keladi. O'zbek tilida ushbu vosita *-ardi -ar* (Sifatdosh qo'shimchasi) *di (edi* to'liqsiz fe'lining qisqartirilgan shakli) yordamida tarjima qilingan.

3. Sie sind sehr deutlich. Aber ich *will* noch mehr Deutlichkeit.

Siz ochiqchasiga gapiryapsiz, biroq men yanada ochiqroq bo'lishingizni istardim.

Wollen modal fe'li o'zining asl ma'nosida ishlatilganda, kuchli istakni ifodalaydi. Ammo o'zbek tilida tarjimada muloyimroq ifodalanib, *-ardim -ar* (Sifatdosh qo'shimchasi) *di (edi* to'liqsiz fe'lining qisqartirilgan shakli) va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalangan. Kuchli istakni ifodalash uchun fe'lga *-ay* ravishdosh qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shib tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo'lardi: *Siz ochiqchasiga gapiryapsiz, biroq men yanada ochiqroq bo'lishingizni istayman*.

4. Ich bin lange genug um das Haus herumgegangen, dich *zu sprechen*.

Sen bilan gaplashay deb.

Sintaktik qurilmalardan *zu+Infinitiv* kuchli istakni bildirib keladi. O'zbek tiliga *-ay deb*, ya'ni *-ay* ravishdosh qo'shimchasi va *deb* yarim bog'lovchisi yordamida tarjima qilingan.

5. *Wenn* es nicht zu spät ist.

Agar kechikmasaydingiz.

Nemis tilida *wenn* so'zi gap boshida kelsa, asosan istak-xohishni ifodalab keladi.

O'zbek tiliga agar -sa+edi *-sa* shart mayli qo'shimchasi *edi* to'liqsiz fe'li va shaxs-son qo'shimchasi qo'shish orqali tarjima qilingan.

„Zaruriyat“ (talab) modalligi

Nemis tilida zaruriyat modalligi ostida lozimlik, talab ma'nolari tushuniladi. Talab modalligi asosan *sollen* modal fe'li bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, infinitiv konstruksiyalar: *sollen+Infinitiv*, *zu+Infinitiv*; fe'lning Imperativ shakli, *verlangen*, *befehlen* mustaqil fe'llari yordamida yasaladi. O'zbek tilida esa -moq kerak, lozim, zarur(modal so'zlari), -moq (Harakat nomi qo'shimchasi)-ish kerak, -ish (Harakat nomi qo'shimchasi)fe'l mayllari shakli, - sachi *-sa* (shart mayli qo'shimchasi) *chi* (yuklama), *talab qilmoq* mustaqil fe'llari orqali ifodalanadi.

Talab ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Marchese Marinelli *soll* mich begleiten.

Markiz Marinelli meni kuzatib qo'ymog'i kerak.

Sollen modal fe'li har doim boshqa bir shaxs yoki umuman jamiyat talabi asosida yuzaga kelgan zaruriyatni anglatadi. Ushbu talab ijtimoiy qoida, majburiyat, burch doirasida bo'lishi mumkin. O'zbek tilida *-moq* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *kerak* modal so'zi orqali tarjima qilingan.

2. Während des Handgemenges, in das beide Teile zum Schein geraten, *soll* mein Bedienter Emilien ergreifen, als ob er sie retten wollte, und durch den Tiergarten in das Schloß bringen.

To'qnashuvdan foydalanib, mening xizmatkorim Emiliyani qutqazgan kishi sifatida uni xayvonot bog'i orqali qasrga boshlab kelishi lozim. (Lessing, 45 b)

Ushbu gapda esa talab modalligi o'zbek tilida fe'lga *-ish* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *lozim* modal so'zi yordamida ifodalangan.

3. Die Treue, die wir Riwalin, dem Toten, schulden, *befiehlt* uns jetzt, für

seinen Sohn zu sorgen.

Rivalin halok bo'ldi. Biz unga sodiq fuqaro edik. Marhumning hurmatini joyiga qo'yish uchun endi uning o'g'liga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. (G. St., 17b)

Bu gapda befehlen mustaqil fe'li talab modal ma'nosi ifodalanishiga xizmat qilmoqda. O'zbek tiliga fe'lga *-ish* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *kerak* modal so'zi yordamida ifodalangan.

4. *Versprichst* du mir, dass wir uns die ganze Zeit streiten? Bo'пти.

Borganim bo'lsin, faqat men bilan oldingidek tortishishga va'da berishing kerak.

Nemis tilida ba'zan fe'lning so'roq mayli ham ba'zan talab ma'nosini ifodalab keladi. O'zbek tiliga fe'lga *-ish* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *kerak* modal so'zi yordamida ifodalangan.

5. Das schreiben wir alles aufs Zimmer, *soll* der Schwiegervater zahlen.

Bularning hammasini mehmonxona xizmati hisobiga yozdiramiz, qudamiz to'lasa kerak-a? (E. H., B. Sh., 191 b)

Sollen+Infinitiv ushbu gapda tarjimada taxmin ma'nosini ifodalab kelib, o'zbek tiliga fe'lga shart mayli qo'shimchasi *-sa,kerak* modal so'zi hamda *-a* so'roq yuklamasi yordamida noto'g'ri tarjima qilingan. Aslida esa bu yerda *Bularning hammasini mehmonxona hisobiga yozdiramiz, qaynota bo'lmish to'lasin* shaklida bo'lsa muvofiq bo'lar edi. Chunki ushbu gapda nafaqat talab, balki kinoya ham ifodalangan.

6. Harry, du machst mich wahnsinnig. *Setz dich hin. Lass* uns vernünftig *reden*.

Hozir aqldan ozdirasan meni, Harri. O'tirsang-chi, jo'yaliroq gaplardan gaplashaylik.

Nemis tilida fe'llarning buyruq mayli kuchli talabni ifodalab keladi. O'zbek tilida *-sa* shart mayli qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *chi* yuklamasi orqali yumshoqroq ifodalangan.

7. Wir haben andere Dinge hier *zu tun*.

Biz bu yerda boshqa yumushlarni hal qilmog'imiz kerak.

zu+Infinitiv konstruksiyasi ham kuchli talabni ifodalab kelib, o'zbek tiliga -*moq* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *kerak* modal so'zi bilan ifodalangan.

8. Meine Freunde *verlangen* schlechterdings, dass ich dem Prinzen von meiner Heirat ein Wort sagen *soll*, ehe ich sie vollziehe. Do'stlarim mendan to'yni boshlamasdan oldin, yuzaki bo'lsa-da, shahzodani xabardor qilishimni qat'iy turib talab qilmoqdalar.

Mustaqil fe'llardan *verlangen* fe'li ham talabni ifodalab kelib, o'zbek tiliga ham tarjimada mustaqil fe'l sifatida, ya'ni *talab qilmoq* fe'li orqali berilgan.

3.2 Voqelikka qaratilgan munosabatga yondashuvga ko'ra modal ma'nolar

Voqelikka qaratilgan munosabatga yondashuvga ko'ra modal ma'nolar tasdiq va inkor modal ma'nolarga ega. Ushbu semantik ma'nolar asosan sintaktik, leksik va shuningdek, maxsus iboralar yordamida ifodalanadi.

“Ta'kid, tasdiq” modalligi.

Voqelikka qaratilgan munosabatga yondashuv ta'kid va tasdiq ma'nolarida ekanligini ifodalash uchun bir qator vositalardan foydalaniladi. Leksik vositalardan modal so'zlardan: *ja, jedenfalls, natürlich, gewie, übrigens*; modal yuklamalardan: *ja auch, denn, doch, doch immer*; modal fe'llardan: *wollen, müssen*; sintaktik vositalardan *werden+Infinitiv, um zu+Infinitiv*; fe'l mayllari va mustaqil fe'llar yordamida ifodalanadi. O'zbek tiliga *ha, ha albatta, har qanday holatda, shunday bo'lsa ham, shundoq ham, hamisha, kerak* so'zlari; *ham, axir, -dir, -ku, -da* yuklamalari va -ar(-ur) edi -ar(-ur) sifatdosh qo'shimchasi va *edi* to'liqsiz fe'li orqali ifodalanadi.

Ta'kid, tasdiq ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. *Ja. Frank, Gloria und Laura. Und Personal.*

Ha, albatta. Frank, Gloriya va Laura. Yana xizmatchilar ham.

Tasdiqni ifodalash uchun nemis tilida ko'pincha *ja* modal so'zidan foydalaniladi. Tarjimada qisqa qilib *ha* deb qoldirsa ham yoki ma'noni yanada kuchaytirish uchun *ha albatta* shaklida bersa ham bo'ladi.

2. Das *muss* bei einem Künstler egal *sein*.

Bularning bari ijodkor uchun ahamiyatsizdir.

Ushbu gapda tasdiqni ifodalash uchun *müssen* modal fe'lining infinitiv bilan birga qo'llanish holati kuzatilmoqda. O'zbek tiliga ot-kesimga *-dir* tasdiq yuklamasini qo'shish yo'li bilan tarjima qilingan.

3. Mich erschlägt das *ja auch*.

Bular mening hamjonimga tegib ketishdi.

Ja auch yuklamasi bu yerda ham ta'kid, ham tasdiqni ifodalab kelyapdi.

O'zbek tilida esa *ham* yuklamasi hamda fe'ning aniqlik maylida berilishi orqali ifodalangan.

4. Wenn man jemanden in einer Bedrängnis sehe, da ergebe sich doch *natürlich* die Pflicht zu helfen...

Basharti, biror kishining og'ir ahvolda qolganini ko'rsak yordam berish biz uchun ham farz, ham qarz-ku?

Natürlich modal so'zi tasdiqning o'ta yuqori darajada ekanini ko'rsatib keladi. O'zbek tiliga *ham,...ham...-ku* yuklamalari yordamida tarjima qilingan . Ammo *-ku* yuklamasi o'rniga *-dir* tasdiq yuklamasini qo'llash o'rinliroq bo'lardi:

Basharti, biror kishining og'ir ahvolda qolganini ko'rsakyordam berish biz uchun ham farz, ham qarzdir.

5. Das ist *aber* ein Klasse Trick, *um* die Reste *loszuwerden*.

Bu oradagi g'uborni yuvish uchun bir usul-da.

Um zu+Infinitiv konstruksiyasi bu yerda tasdiqni ifodalashga xizmat qilmoqda. O'zbek tiliga fe'lga *-ish* harakat nomi qo'shimchasi *uchun* bog'lovchisi hamda *-da* yuklamasi orqali tarjima qilingan

6. Deine Sache *wird* ein ganz anderer zu seiner machen!

7. Sening ishing, o'g'lim, boshqa bir kishining gardaniga tushadi!

Werden+Infinitiv ta'kid ma'nosini ifodalab, o'zbek tiliga fe'lining aniqlik mayli shakli qo'llanilishi orqali tarjima qilingan.

8. Wenn es nur das wäre, so *müsste* freilich Orsina sich in ihr Schicksal ebensowohl zu finden wissen als der Prinz in seines.

Agar gap faqat shunda bo'lsa, Orsina ham, albatta, sizga o'xshabtaqdirga tan bermog'i darkor edi.

Müssen fe'li preteritum Konjunktiv shaklida kuchli ta'kidni ifodalab kelib o'zbek tiliga *-moq* harakat nomi qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi, *darkor* modal so'zi va *edi* to'liqsiz fe'li yordamida tarjima qilingan.

9. Um die süßen Kränkungen des Freundes und des Mitleids *würde* es Grausamkeit sein sie zu bringen.

Uni do'stlari va mehribonlarining tasallosidan mahrum qilish shafqatsizlik bo'lur edi.

Werden fe'lining preteritum Konjunktiv shakli ham ta'kid ma'nosini ifodalab keladi. O'zbek tiliga *-ar* sifat-dosh qo'shimchasining qadimgi shakli *-ur* qo'shimchasi va *edi* to'liqsiz fe'li orqali berilgan.

10. Dieser Mann ist *doch* ein Holzklötz.

Bu yigit qurigan to'nkaning o'zginasi-ku, axir.

Doch yuklamasi nemis tilida kuchli ta'kid ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilida *axir* yuklamasi orqali tarjima qilingan.

11. Du hast *doch immer* große Reden gegen Golfspieler und Mercedesfahrer geschwungen.

O'zing hamisha golf o'yinlariga va „Mercedes“ egalariga qarshi eding-ku.

Doch immer yuklamali qurilmasi gapda ta'kid ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda. O'zbek tiliga *hamisha* payt ravishi va fe'lga *-ku* yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

“Inkor “(e’tiroz, norozilik, rad etish) modallik. Inkor munosabat ma’nosini ifodalab kelgan misollar :

1. Von einem Kinde weiß ich *nichts*, doch einen Jüngling dieses Namens gibt es hier.

Bunaqa bolani bilmayman, ammo qirol huzurida Tristan ismli chiroyli va bilimdon bir yigit bor.

Ushbu gapda *nichts* yuklamasi bosh gapni inkor qilishga xizmat qilyapdi. Doch yuklamasi esa qo’shimcha izoh berish uchun qo’llanilgan. O’zbek tiliga fe’lga *-ma* inkor qo’shimchasi va shaxs-son qo’shimchalarini qo’shish orqali tarjima qilingan. *Doch* yuklamasi *ammo* inkor yuklamasi orqali tarjima qilingan.

2. *Nein*. Ich bin nur sein Gefolgsmann.

Yo’q men uning xizmatchisiman, xolos.

Nemis tili dialoglarda inkor munosabatni ifodalash uchun *nein* inkor so’zi asosiy vosita hisoblanadi va asosan yo gap, yo kirish so’z vazifasida keladi. Tarjimada o’zbek tiliga esa *yo’q* so’zi orqali to’g’ri berilgan.

3. *Dann* bitte ich um meinen Abschied, Verfolgt von Haß, geplagt von Angst, *kann* ich *nicht* leben.

Bo’lmasa, menga javob bering, ketay, nafratga uchrab, havotirda yashay olmayman.

Können modal fe’li *nicht* inkor yuklamasi bilan kelganda dialoglarda javob tariqasida e’tiroz ma’nosini bildirib keladi. Tarjimada asosiy fe’l va olmoq yordamchi fe’li va *-ma* inkor qo’shimchasi va shaxs-son qo’shimchalarini qo’shish orqali tarjima qilingan.

4. Ich *will* ihren Kollegen *nicht*... ich bin zu Ihnen gekommen.

Hamkasbingizning keragi yo’q. Men sizning huzuringizga kelganman.

Wollen fe’li *nicht* inkor yuklamasi bilan kelganda suhbatdoshning taklifiga nisbatan inkor munosabatni ifodalab keladi. O’zbek tiliga esa *kerak* modal so’ziga shaxs-son qo’shimchasini qo’shish vayo *’q* so’zi orqali berilgan.

5. So *geht es nicht*. Ich muss Ihnen alles direkt erzählen, von Anfang an, sonst verstehen Sie es nicht..

Yo'q, bundan hech narsa chiqmaydi. Hammasini bir boshidan aytib bermasam, siz baribir tushunmaysiz.

Es gehen iborasiga *nicht* yuklamasini qo'shganda esa qat'iy e'tiroz ma'nosini ifodalab keladi. Birgina *nicht* yuklamasi o'zbek tiliga bir jumlaning o'zida bir necha vositalar orqali ifodalangan. O'zbek tiliga *yo'q* so'zi, *hech narsa* birikmasi va asosiy fe'lga *-ma* inkor qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali tarjima qilingan.

6. Versuchen Sie nur, mir zu befehlen.

Qani, menga bir buyurib ko'ring-chi!

Zu+Infinitiv sintaktik qurilmasi ushbu gapda kuchli e'tirozni ifodalab, o'zbek tiliga asosiy fe'lga *-ib* ravishdosh qo'shimchasi, *ko'ymoq* yordamchi fe'li va *-chi* yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

7. Ich war noch *nie* in Lugano gewesen.

Men hali biror marta Luganoda bo'lmadim-ku?

Noch nie yuklamali birikma butun gapni inkor qilish uchun xizmat qilmoqda. O'zbek tiliga *hali biror marta* birikmasi va asosiy fe'lga *-ma* inkor qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchalari va *-ku* ta'kid yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

8. *Aber* du vergisst, dass ich schon tot bin.

9. Ammo men allaqachon o'lganimni unutma.

Aber modal so'zi ham gapga inkor tus beradi. O'zbek tiliga *ammo* yordamchi so'zi va asosiy fe'lga *-ma* inkor qo'shimchasini qo'shib tarjima qilingan. Bu yerda aslida: *Ammo men allaqachon o'lganimni unut* shaklida bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

10. *Doch*, dass Laura sich gut mit Frank versteht.

Yozibdi. Laura Frank bilan til topishib olganmish.

Doch yuklamasi asosan gap boshida kelib, inkor ma'nosini bildiradi. Ammo o'zbek tiliga *yozibdi* shaklida noto'g'ri berilgan. Nega endi birikmasi orqali berilganda aniqroq tarjimaga erishilgan bo'lardi: *Nega endi, Laura Frank bilan til topishib olganmish*.

11. *Manchmal ist aber jemand dabei, den man kennt.*

Ba'zan biz tanigan odamlar ham bo'lib qoladi shunday joylarda.

Ushbu gapda *aber* yuklamasi o'zbek tiliga tarjimada ifodalanmagan. O'zbekchada: *Ammo ba'zan biz tanigan kimdir yonimizda bo'ladi* deb tarjima qilinishi kerak edi. Du könntest ruhig mal mitkommen. *Aber nein, Golf spielen.*
Golf

Men bilan borsang, qanday yaxshi bo'lardi. Biroq senga mendan ko'ra golf afzal.

Ushbu gapning ikkinchi qismida inkor ma'nosi *aber nein* birikmasi orqali ifodalangan. O'zbek tilida esa *biroq yordamchi so'zi* orqali tarjima qilingan. Fikrimizcha, ushbu birikmani so'zma-so'z tarjima qilganda ham ma'no o'zgarmasdi: *Men bilan borsang, qanday yaxshi bo'lardi. Ammo yo'q, senga mendan ko'ra golf afzal.*

Was soll das denn jetzt, das ist doch *ganz was anders.*

Buning suhbatimizga nima aloqasi bor, bu butunlay boshqa narsa.

Ganz anders yuklamali birikmasi bu yerda gapning ma'lum bir qismiga taaluqli bo'lib, shu qismni inkor qilishga xizmat qilyapdi. O'zbek tiliga *butunlay boshqa narsa* birikmasi orqali to'g'ri berilgan.

13. Sein neues Buch. Du kennst *ja nicht mal* die alten. Du liest *ja gar nicht* mehr. Golf!

Nima sabab bo'lardi. Yangi kitobi taqdimoti bo'ladi. Sen eskilarini ham bilmasang kerak. Axir, kitob o'qimaysan-ku. Sen sho'rlikka golf bo'lsa bo'ldi.

Shuningdek, *ja nicht mal, ja gar nicht* yuklamali birikmalar ham inkor munosabatni ifodalab keladi. Tarjimada fe'lga *-ma* inkor qo'shimchasi *-sa* shart mayli qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchasini qo'shish orqali, shu bilan birga *-ku* ta'kid yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

13. *Warum soll nicht mal ein reicher.*

Birorta boyga ilakishsa nima bo'пти?...

Sollen modal fe'lga *nicht* inkor yuklamasi qo'shilganda, kuchli e'tirozni ifodalab keladi. O'zbek tiliga *nima bo'пти* birikmasi yordamida tarjima qilingan.

14. Du kannst gern fahren, *keiner* hindert dich.

Yo'q, nega, sen borishing mumkin.

Nemis tilidagi *kein* inkor so'zini tarjimada *yo 'q nega* so'zlari orqali berilgan. Bizning fikrimizga ko'ra: *Sen boraverishing mumkin, hech kim to'sqinlik qilmaydi* tarzida berilsa to'g'ri tarjima bo'lgan bo'lardi.

3.3 .So'zlovchining voqelikka ishonchlilik darajasiga ko'ra modal ma'nolar.

So'zlovchining voqelikka ishonchlilik darajasi asosan modal ravishlar, kirish so'zlar, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar bilan, shuningdek, modal fe'llar va infinitiv qurilmalar yordamida ifodalanadi.

“Ishonch” modalligi.

Ishonch ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Jetzt kochen wir *richtig*.

Endi esa chindan ovqat pishiramiz.

Richtig yuklamasi ishonch ma'nosini ifodalab kelib, o'zbek tiliga *chindan* modal so'zi orqali to'g'ri ko'rsatib berilgan.

2. Alles Gute, Erika, *trü*ste ihn, *du kannst* es.

Xayr, Erika, sen uni ovut, buni eplay olasan!

Können modal fe'li gapda mustaqil fe'l vazifasida kelganda, kuchli ishonchni ifodalab keladi. O'zbek tiliga *eplamoq* mustaqil fe'li *olmoq* yordamchi fe'li va unga shaxs-son qo'shimchasini qo'shish orqali mukammal tarjima qilingan.

3. Ich *glaube*, unsere Tochter ist zum ersten Mal im Leben *richtig* glücklich.

O'ylashimcha, buning hojati yo'q. Qizimiz bu safar adashmadi.

Glauben mustaqil fe'li va *richtig* modal yuklamalari ushbu gapda ishonchni ifodalab kelmoqda. Tarjimada *o'ylamoq* fe'li orqali berilgan. Ammo ushbu gap quyidagicha: *Qizimiz hayotida ilk marotaba haqiqatan ham baxtli ekaniga ishonaman* shaklida berilishi kerak edi.

4. Ich *wusste*, dass du das sagen würdest.

Shunday deyishingni bilardim.

Wissen fe'lining preteritum shakli ichki ishonchni ifodalab keladi. O'zbek tiliga *bilmoq* fe'liga *-ar* sifatdosh qo'shimchasi *-di* o'tgan zamon qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali tarjima qilingan.

Ikkilanish" modalligi

1. *Wissen Sie, Doktor, was ich von Ihnen will, oder wissen Sie es nicht?*
Doktor, sizdan nima istayotganimni bilyapsizmi o'zi?

2. Nemis tilida *wissen* fe'lining so'roq maylida ifodalanishi va *nicht* inkor fe'li bilan birga qo'llanilishi, shuningdek *oder nicht* so'roq yuklamalari ham ikkilanish ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilida *-mi* yuklamasi va *o'zi* ta'kid so'zini qo'llash orqali ifodalanadi.

2. Ist sie denn *eigentlich* glücklich, Lore, hürt man mal dazu was *oder* ist das egal?

Lore, u chindan ham baxtini topdimikan? Bu haqda bilsak bo'ladimi yo buning ham farqi yo'qmi?

Ushbu gapda *oder* yuklamasi orqali ikkilanish ma'nosi ifodalangan. Tarjima jarayonida esa *yo* yordamchi so'zi va *-mi* so'roq yuklamasi orqali to'g'ri tarjima qilingan.

3.4. So'zlovchining his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishiga ko'ra modal ma'nolar

So'zlovchining his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishiga ko'ra modal ma'nolar undov so'zlar, modal so'zlar, mustaqil fe'llar va eng asosiysi, intonatsiya orqali ifodalanadi. Intonatsiyani yozma tilda tahlil qilish murakkab bo'lganligi uchun kontekst va muallif izohi orqali intonatsiyani anglab olish mumkin.

"Hayrat" modalligi

Hayrat ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Wir *wieder* in einer Kutsche?

Yana karetaga chiqamizmi?

Wieder yuklamasi so'roq gaplarda kutilmagan holatni ifodalab, hayrat ma'nosini yuzaga chiqaradi. O'zbek tiliga *yana* so'zi va *-mi* modal yuklamasi orqali tarjima qilingan.

2. *Ah, meine Mütter, und Sie können das von Ihrem Sohne argwohnen?*

Eh, onajon! Nahotki, o'z o'g'lingizdan shubhalansangiz?

Undov so'zlar ham his-hayajonni kuchaytirishga xizmat qiladi va ushbu holatda *Ah* undov so'zi o'zbek tiliga ham *eh* undov so'zi, ham *nahotki* taajub so'zi bilan ifodalangan.

3. *Was hat sie nun weiter in Guastalla zu tun?*

U endi Guastallaga borib nima qiladi?

Zu+Infinitiv konstruksiyasi ushbu gapda *was* so'roq so'zi bilan birga qo'llanilib, hayrat-taajub ma'nosini ifodalab kelmoqda. O'zbek tilida aniq bir vosita bo'lmaganligi sababli, ohang va kontekst vaziyatidan anglashilib turadi.

4. *Warum soll der Graf hier dienen, wenn er dort selbst befehlen kann?*

U yerda o'zi xo'jayin bo'la oladigan grafga bu yerda qolishning zarurati bormikan?

Ergash gapli qo'shma gaplar ham so'roq shaklida hayrat ma'nosini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. *Warum* so'roq so'zi *sollen+Infinitiv* va *wenn* bog'lovchisi bu ma'noni kuchaytirishga hissa qo'shgan. O'zbek tiliga *zarurat* so'zi va bor ot-kesimiga *-mi* so'roq yuklamasi hamda *ekan* to'liqsiz fe'lining *-kan* qisqargan shakllari orqali ifodalangan. Ammo shu shaklda: *Axir grafni u yerda o'zining gapi o'tgandan keyin, nega u bu yerda xizmat qilishi kerak?*

5. *Es ist wohl noch keiner von den Räten in dem Vorzimmer?*
Maslahatchilardan birortasi ko'rinmaydimi?

Es ist wohl birikmasi ham so'roq gaplarda hayrat ma'nosini ifodalab keladi va o'zbek tiliga *-mi* yuklamasi yordamida tarjima qilingan.

6. *Würde mich wundern, wenn das in Leipzig erlaubt wäre, privater Tennisplatz mitten in einem Wohngebiet.*

Laypsigda odamlar istiqomat qiladigan joyning qoq markazida shaxsiy tennis maydonchasi bo'lishiga ruxsat etilishi meni taajubga solgan bo'lardi.

Wundern mustaqil fe'li hayratni ifodalovchi asosiy leksik vositadir. Ushbu gapda u shart maylida ifodalanib taajub ma'nosini bildirmoqda. Tarjimada *taajub* modal so'ziga *-ga* jo'nalish kelishigi, *solmoq* yordamchi fe'lga *-gan* sifatdosh

qo'shimchasi va *bo'lmoq* fe'lga *-ar* ravishdosh qo'shimchasi va *-di* qo'shimchasi orqali berilgan.

7. Wie anders hätte er denn sonst den übermenschlich starken Morold erschlagen können?

Bo'lmasa, deyday kuchli Moroldni o'ldira olarmidi?

Wie so'roq so'zi va Konjunktiv birga qo'llanilganda ham hayrat ma'nosini uchratishimiz mumkin. O'zbek tilida asosiy fe'lga *-a* ravishdosh qo'shimchasi va *olmoq* yordamchi fe'lga *-ar* ravishdosh qo'shimchasi, *-mi* so'roq yuklamasi *-di* tasdiq qo'shimchasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

8. Wieso ? Seid Ihr denn nicht der Vater?

Tushunmadim, nega bunday deyapsiz? -nima, siz uning haqiqiy otasi emasmisiz?

Bu yerda *wieso* so'roq so'zi kuchli hayratni ifodalab kelmoqda. O'zbek tiliga birgina so'z juda uzun, aslyatda mavjud bo'lmagan birikma orqali tarjima qilingan. Aslida: *Qanday qilib? Siz uning otasi emasmisiz?* deb tarjima qilinganda ma'qulroq edi.

9. Mein Gott, wie schön, da wird sich das Kind aber freuen!

10. Ey xudoyim, buncha chiroyli, bolangiz xursand bo'ladigan bo'пти!

Wie so'zi odatda sifatlar oldidan qo'llanilganda albatta qandaydir ma'noni yuzaga chiqaradi. Ushbu holatda esa u *schön* sifati bilan qo'llanilib, hayrat ma'nosini ifodalab kelgan. O'zbek tiliga *buncha chiroyli* birikmasi orqali to'g'ri berilgan.

11. Darf eine einzige fehlgeschlagene Hoffnung uns gegen die Welt so unversöhnlich machen?

Nahotki, puchga chiqqan birgina umid bizni bir umr hayotga shunday beshafqat bo'lishga undasa?

Dürfen+Infinitiv ham so'roq shaklida hayrat ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilida *nahotki* so'zi va fe'lga *-sa* shart mayli qo'shimchasini qo'shish orqali berilgan.

“Havotir” modalligi

Havotir ma’nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Personal? *Wie kommt unser einstiges Freakmädchen mit Personal zurecht?*

2. Xizmatchilar ham? O’sha erka qizalog’imiz xizmatchilar bilan til topishib keta olarmikan?

Wie so’roq so’zi bu gapda *zurecht kommen* birikmasi bilan birga qo’llanilib havotir ma’nosini ifodalab kelmoqda. O’zbek tiliga *til topishib ketmoq* birikmasi va *olmoq* yordamchi fe’liga *-mi* so’roq yuklamasi va *ekan* to’liqsiz fe’lining qisqa shakli *-kan* qo’shimchasini qo’shish orqali to’g’ri tarjima qilingan.

3. Du mußt mir helfen, liebe Meisterin, *sonst muß ich sterben.*

Menga yordam bering, aks holda o’lishim aniq.

Qo’shma gaplarda *sonst* bog’lovchisi ba’zan havotirni ifodalab keladi va o’zbek tilida *aks holda* birikmasi orqali tarjima qilinadi.

4. Ich *fürchte*, Ihr Männer, der Sturm ist die Strafe für unser Verbrechen.

Do’stlar, o’ylashimcha, bu dovul biz qilgan jinoyat uchun xudo tomonidan yuborilgan jazo bo’lsa kerak.

Fürchten mustaqil fe’li kuchli havotirni ifodalab keladi. Ammo ushbu gapda u *o’ylamoq* fe’li orqali noto’g’ri tarjima qilingan. Bizningcha: *Do’stlar, bu dovul qilgan jinoyatlarimiz uchun jazo bo’lishidan qo’rqib turibman* tarzida berilishi kerak edi.

5. *Würde* mein Verschweigen nicht, früh oder spät, seine Unruhe vermehren?

Mening jim yurganim uni ertami-kechmi tashvishga solmaydimi?

Werden fe’li Konjunktivda so’roq shaklida *die Unruhe vermehren* iborasi bilan birga kelganda ham havotirni ifodalab keladi. O’zbek tiliga *tashvishga solmoq* iborasiga *-di* tasdiq qo’shimchasi va *-mi* so’roq yuklamasini qo’shish orqali tarjima qilingan.

“Afsus, achinish” modalligi Afsus, achinish ma’nolarini ifodalab kelgan misollar:

1. Was haben wir bloß *falsch gemacht* mit diesem Kind?

Qizimizning tarbiyasida nimada adashdik ekan-a?

Was so'roq so'zi falsch machen iborasi bilan kelganda afsus, achinish ma'nolarini anglatib keladi. O'zbek tiliga *nima* so'roq so'ziga *-da* o'rin-payt qo'shimchasini qo'shish, *adashmoq* fe'liga o'tgan zamon shaxs-son qo'shimchasini qo'shish va *ekan* to'liqsiz fe'liga *-a* yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

2. Und da *hat sie viel zu tun*.

Hali unung tiriklar orasida qiladigan ishlari ko'p edi.

Haben zu+Infinitiv ham ba'zan afsus ma'nosini ifodalab kelib, *viel* ravishi bilan birga qo'llanilib, asosiy fe'lga *-gan* sifatdosh qo'shimchasi, *ko'p* ravishi va *edi* to'liqsiz fe'li yordamida tarjima qilingan. Bizningcha : *Hali u ko'p ish qilishi kerak edi* tarzida bersa ham bo'ladi.

3. Ach, Tristan, *wenn ich gewusst hatte*, was mich heute verwirrt, dann hätte ich zugestoßen.

Oh, Tristan, bir kun es-hushimni yo'qotib qo'yishimni bilganimda, albatta qilichni sanchgan bo'lardim.

Wenn bog'lovchisi va fe'lning o'tgan zamon shakli birga qo'llanilganda ham afsus ma'nosini ko'rishimiz mumkin. Tarjimada *agar* bog'lovchisi tarjima qilinmagan. Fe'lga *-gan* sifatdosh qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *-da* qo'shimchasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

4. Mein Betragen diesen Morgen *ist nicht zu rechtfertigen* - zu entschuldigen höchstens.

5. Men o'zimning ertalabki hatti-harakatimni oqlay olmayman, albatta.

Sein zu+Infinitiv asosan majhul nisbatdagi modallikni ifodalab kelib, bu yerda afsus ma'nosida qo'llanilgan. Ammo tarjimada aniq nisbat orqali berilgan.

Aslida:

Ertalabki hatti-harakatimni oqlab bo'lmaydi, ming bor uzr tarzida berilishi kerak edi.

6. *Warum* will ich mich auch auf ihn allein verlassen?

Nega endi men faqat unga suyanib qoldim?

Warum so'roq so'zi bilan kelgan gaplarda ham afsus ma'nosini uchratish mumkin. O'zbek tiliga *nega* so'roq so'zi bilan ifodalangan.

7. *Wenn* Sie mir vorher gesagt hätten, dass es dem Grafen das Leben kosten werde.

Bunday xatti-harakatingiz grafning hayotiga zomin bo'ladi, deya meni biroz ogohlantirsangizedi...

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *wenn* bog'lovchisi fe'lining o'tgan zamon Konjunktiv shakli birga qo'llanilganda afsus ma'nosini ko'rishimiz mumkin. Bu holatda ushbu gap fe'lga *-sa* shart mayli qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va *edi* to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali tarjima qilingan.

“Qiziqish” modalligi

Qiziqish ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. Was glaubst du, *wie* prunkvoll morgen die kirchliche Hochzeit wird, wenn da jetzt schon so ein Geduns gemacht wird.

Nima deb o'ylaysan, marosimdan avvalgi dahmaza shuncha bo'lsa, ertangi cherkovda o'tkaziladigan muhtasham nikoh to'yi qanday o'tarkin?

Wie bog'lovchisi so'roq gaplarda qiziqish ma'nosini ifodalab keladi. O'zbek tiliga *qanday* so'roq so'zi orqali tarjima qilingan.

2. Ich *wollte einfach wissen*, was für ein Mensch er ist und ob ich Glorias Europhie trauen kann.

Men Frankni aslida qanday inson ekanini, Gloriya haqiqiy baxtini topganiga ishonsam bo'ladimi, yo'qmi shuni bilmoqchiman.

Wollen fe'lining o'tgan zamon shakli *wissen* fe'li bilan qo'llanilganda, qiziqish ma'nosini ifodalab keladi. O'zbek tiliga asosiy fe'lga kelasi zamon maqsad qo'shimchasi *-moqchi* ni qo'shish orqali tarjima qilingan. Bu yerda qiziqish ma'nosi istak ma'nosiga yaqinlashgan.

3. Das kam mir gerade so als Bild. Ist er groß *oder* klein?

Bu holat surat kabi ko'z oldimda gavdalandi. U balandmi yo pastmi?

So'roq gaplar nemis tilida *oder* yuklamasi bilan kelishi qiziqish ma'nosini hosil qilishda yordam beradi. O'zbek tiligayo... *-mi?* tarzida tarjima qilingan.

4. *Was trug ich, wie sah ich aus, als ich Ihnen zuerst gefiel?*

5. Men birinchi marta sizga yoqib qolganimda, nima kiyganligim va qanday qiyofada ekanligimni eslaysizmi?

Qiziqish ma'nosi asosan so'roq gaplarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Bunda istalgan so'roq so'z qiziqish ma'nosini anglatib kelishi mumkin. Ushbu gapda *was, wie* so'roq so'zlari aynan shu ma'noni ifodalab kelib, o'zbek tiliga *nima, qanday* so'roq so'zlari yordamida tarjima qilingan.

6. *Ist es wahr, dass der Prinz heute morgen Emilien in der Messe gesprochen?*

Bugun ertalab, ibodat paytida, shahzodaning Emiliya bilan gaplashgani rostmi?

Es wahr sein iborasi so'roq shaklida qo'llanilganda ham qiziqishni bildirib keladi. O'zbek tiliga rost so'ziga *-mi* so'roq yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

Wer aber ist Tristan dann?

U holda, Tristan kim!?

Bu yerda *dann* yuklamasi qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilib, uning o'zbek tiliga muqobili tarjimada aks etmagan. Tarjima: U holda Tristan kim, *o'zi?* bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

3.5. Subyektning reaksiyasiga ko'ra modal ma'nolari

Og'zaki nutqda so'zlovchi o'zidan avvalgi so'zlovchining fikriga munosabat bildirib, shunga ko'ra nimanidir taklif qilishi, qandaydir maslahat berishi, ruhsat - ijozat berishi, rozi-mamnun bo'lishi mumkin. Bunday modal ma'nolar asosan fe'l mayllari, modal so'zlar, modal yuklamalar va modal fe'llar bilan ifodalanadi.

“Taklif” (maslahat)modalligi

Taklif ma'nosini ifodalab kelgan misollar:

1. *Geben Sie mir nur Ihr Schwein, ich halte es!*

Cho'chqangizni bering, ushlab ketaman.

Fe'llarning aniqlik mayli va buyruq mayli taklif ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi va o'zbek tiliga ham xuddi shunday, buyruq va aniqlik mayli qo'shimchal ari yordamida tarjima qilinadi.

2. Ich bin Lisa mit der Empfehlung des Tages, Hände weg vom Käsekuchen, der ist von letzter Woche, aber den Apfelkuchen *kann* ich nur *empfehlen*.

Men Lizaman, pishloqli pirog o'tgan haftaniki, ammo olmalisini sizga tavsiya eta olaman.

Empfehlen mustaqil fe'li gapda yakka holda qo'llansa ham, taklif ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi gapda u *können* modal fe'li bilan birga kelib, so'zlovchida taklif imkoniyati mavjudligini bildirib kelmoqda. Tarjimada *tavsiya etmoq* fe'liga - *a* ravishdosh qo'shimchasi va *olmoq* yordamchi fe'liga shaxs-son qo'shimchasini qo'shish orqali berilgan.

3. *Schlagt* Tristan zum Ritter, Herr, damit er seinen Anspruch auf Parmenien selbst geltend machen kann.

Tristanga qurolbardorlik unvonini bering, istagim shu, toki u Parmeniyaga hokimlik da'vosini o'zi amalga oshirsin.

Ushbu gapda fe'lning buyruq shakli taklif ma'nosini ifodalashga xizmat qilmoqda va o'zbek tiliga ham fe'l buyruq mayli shaklida tarjima qilingan.

“Ruhsat” (ijozat) modalligi

Ruxsat, ijozat ma'nolarini ifodalab kelgan misollar:

1. *Verzeihen Sie*, wenn ich *eine Bitte* an Sie *richte*.

Kechirasiz, sizdan bir narsani iltimos qilmoqchi edim.

Ruhsat, ijozat ma'nosi og'zaki nutqda asosan gaplarning *Verzeihen Sie* iborasi bilan boshlanadi. Ushbu gap *kechirasiz* so'zi orqali tarjima qilingan.

2. *Darf* ich Ihnen Tee *anbieten*?

Bir piyoladan choy ichsak qanday bo'larkin.

Dürfen+Infinitiv birikmasi bilan ifodalangan gaplar ijozat so'rashning muloyimroq va o'dob doirasida, rasmiy ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tiliga bu vosita *qanday bo'larkin* shaklida tarjima qilingan.

3. *Verzeihen Sie, darf ich ganz frei einige Fragen stellen?*

4. Kechirasiz, sizga bir nechta savol bersam maylimi?

Ushbu gapda ham *Verzeihen Sie* iborasi, ham *dürfen+Infinitiv* birikmasi birga qo'llanilib, o'zbek tiliga kechirasiz so'zi, asosiy fe'lga *-sa* shart mayli qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi va mayli modal so'ziga *-mi* so'roq yuklamasini qo'shish orqali tarjima qilingan.

5. Herrin, *entlasst mich*, Ich muß nach Hause. Bleibt gesund und glücklich.

Bekam, menga javob bering, uyga ketishga majburman. Omon bo'ling!

Ushbu gapda *entlassen* mustaqil fe'li ijozat so'rash ma'nosida qo'llanilgan. O'zbek tiliga *javob bermoq* fe'lining ko'chma ma'nosiga buyruq mayli qo'shimchasini qo'shish orqali berilgan.

6. *Bitte, lassen Sie uns rein*.

Iltimos, bizni ichkariga kiriting.

Nemis tilida *bitte* so'zi gap boshida kelsa, asosan, ruhsat-ijozat ma'nolarini ifodalab keladi. O'zbek tilida *iltimos* so'zi yordamida ifodalangan.

“Mamnuniyat, rozilik” modalligi. Mamnuniyat, rozilikni ifodalab kelgan misollar:

1. *So sei es*. Doch nur, wenn Tristan will.

Tristanning o'zi ham shuni xohlayotgan bo'lsa, mayli, shundoq bo'la qolsin.

Sein fe'lining Konjunktiv I formasida ifodalanishi ushbu holatda rozilikni bildirib kelmoqda. O'zbek tiliga bo'lmoq fe'lga *-a* ravishdosh qo'shimchasi va qolmoq yordamchi fe'lga *-sin* buyruq-istak mayli IIIshaxs birlik qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan tarjima qilingan.

2. *Gut, dann nehme ich den Käsekuchen*.

Yaxshi, men pishloqlisidan yeyman.

Gut ravishi gap boshida kelsa, mamnunlikni ifodalab keladi. O'zbek tiliga ham aynan tarjimasi, ya'ni gap boshida *yaxshi* so'zi orqali berilgan.

3. *Da geht es ihm gut*.

Janob o'zini yaxshi his etayapti.

Es gehen birikmasi *gut* ravishi bilan birga qo'llanilganda, mamnunlikni ifodalaydi. O'zbek tiliga *yaxshi his etmoq* fe'li bilan berilgan.

Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishida nemis va o'zbek tillaridagi fe'llarda modallik muammolari mavzusini yoritib berishga harakat qildim. Bu mavzuga oid har ikki tilda nashrdan chiqqan adabiyotlarni ko'rib chiqdim. Bu mavzuni ochib berishda har ikki tildagi modallikni ifodalovchi vositalarni ya'ni fonetik, leksik va Grammatik vositalarni o'rganib chiqdim va quyidagi xulosalarga keldim:

- Modallik fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'liq til hodisasidir.
- Modallik gapning eng muhim belgisidir.
- Nemis tilida modallik kategoriyasini ifodalaydigan vositalardan eng muhimlari quyidagilar: fe'lning grammatik tizimida - fe'l mayllari, modal fe'llar, so'z birikmalari va gaplar; fonetika tizimida - intonatsiya; leksika tizimida - yuklamalar, modal so'zlar.
- Nemis tilida modal so'zlar bilan modal fe'llar birga qo'llanib subyektiv modallikni ifodalashga xizmat qilishi
- Nemis tilida mahsus modal yuklamalar va modal fe'llarning borligi, o'zbek tilida esa bunday shakllarning yo'qligi
- O'zbek tilida shart modallik ma'nosini ifodalovchi fe'llar nomustaqil kesimni shakllantirishi, nemis tilida esa bunday affikslarni qo'llanmasligi.
- O'zbek tilidagi fe'llarda modallik ma'nosini berish uchun mahsus affikslarni qo'llanilishi, nemis tilida esa bunday affikslarni qo'llanmasligi.
- Modallikni ifodalovchi vositalarni nutqda o'z o'rnida qo'llash nuqtning jozibadorligini va tasirchanligini oshirgan holda tinglovchi va o'quvchining muallifga nisbatan e'tiborini kuchaytiradi. Dialogik nutqdagi subyektiv modallikni reallashtirishda fonetik, morfologik, sintaktik va leksik vositalar muhim rol o'ynashini bilib oldim.
- Modal so'zlar so'zlovchi ifodalayotgan fikrni ta'sirchan va muhtasar qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilimizda modal so'zlarni qo'llash orqali nutqiy ortiqchalikka yo'l qo'yilmaydi. Modallikni ifodalovchi vositalarni nutqda o'z o'rnida qo'llash nuqtning jozibadorligini va tasirchanligini oshirgan holda tinglovchi va o'quvchining muallifga nisbatan e'tiborini kuchaytiradi.
- Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, har ikki tildagi modallik o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlarni o'rganish orqali til o'rganish jarayonidagi bilimlarim yanada takomillashdi va mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi qarori, Toshkent, 10.12.2012
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch“, Toshkent, “Ma'naviyat” – 2008
3. Karimov I.A. “ O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, Toshkent, “O'zbekiston” – 2011
4. Karimov I.A. “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”, Toshkent – 1997
5. T. Z. Mirsoatov “ Nemis tili grammatikasi”, Toshkent, “O'qituvchi” – 1987
6. S. Saidov, G. Zikrillayev “Nemis tili grammatikasi”, Toshkent, “O'qituvchi” – 1973
7. Y. Benyaminov, T. Mirsoatov “Nemis tili grammatikasi” Toshkent – 1962
8. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent – 2009
9. G'. Abdurahmonov “O'zbek tili grammatikasi” Toshkent, “O'qituvchi” – 1996
10. X. Abdurahmonov, A. Rafiyev, D. Shodmonqulova “O'zbek tilining amaliy grammatikasi” Toshkent “O'qituvchi” – 1992

Nemis tilidagi adabiyotlar:

11. Duden. Die Grammatik. -Mannheim-Leipzig-Wein-Zürich, Dudenverlag, 2006.
12. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. -Mannheim, 1998.- N4.

13. Elke H./Harald W.. Handbuch der deutschen Grammatik. -Berlin-New York, Walter de Gruyter, 2003.
14. Engel, Ulrich. Deutsche Grammatik. - Heidelberg, Groos, 1996.
15. Helbig, Gerhard. Deutsche Grammatik. Grundfragen und Abriß. - München, Judicium, 1996.
16. Jung, Walter. Grammatik der deutschen Sprache. - Mannheim - Leipzig, Bibliographisches Institut, 1990. N10 .
17. Motsch W. Syntax des deutschen Adjektivs, Studia Grammatika.-Berlin, Akademie, 1967.

Tadqiqiy adabiyotlar ro'yhati:

18. Elke H. Erika . - München-Wien, Carl Hanser, 2002.
19. Elke H. Erika yoxud hayotning sirli ma'nosi (Qo'chqorova H. tarjimasi).- Sharq yulduzi jurnali.- Toshkent, 2012. (135-142 bb)
20. Elke H., Bernd Sch. Alte Liebe. - München, Carl Hansel, 2009.
21. Elke H., Bernd Sh. Azaliy ishq (Qo'chqorova H., Soatov F.,lar tarjimasi). - Toshkent, Nihol, 2013.
22. Günter de B. Tristan und Isolde. - Berlin, Neues Leben, 1975.
23. Gyunter de B. Tristan va Izolda(Yo'ldosh P. tarjimasi). - Toshkent, O'zbekiston, 1994
24. Stephan Z. Der Amokläufer. Leipzig, Marix, (165-226 S)
25. Stephan Z. Quturgan qotil(Yo'ldosh P., Tenglashev M.,lar tarjimasi). - Yoshlik jurnali. - Toshkent, Yosh gvardiya.(43-57 bb)
26. Lessing E. G. Emiliya Galotti(Posho Ali U. tarjimasi). - Toshkent, Yangi nashr, 2011.
27. Lessings Werke. -Berlin und Weimar, 1975 (235-319bb)
28. Butayev Z., Karimov Sh., Ismoilov Y. Nemischa-o'zbekcha lug'at. - Toshkent, Ma'naviyat, 2007.
11. Karimov Sh., Ismoilov Y. O'zbekcha-nemischa lug'at. - Toshkent, Nihol, 2011.Internet manbalari:

29. <http://www.referun.com/n/sposoby-vyrazheniya-subektivnoy-modalnosti-v-dialogicheskoy-rechi#ixzz2wItagqls>
30. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/satzverbindung-modal-anstatt-dass-als-dass-stattdessen-anstatt/>
31. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/als-ob-als-wenn-wie-wenn-als/>
32. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/satzverbindung-modal-indem-dadurch-dass-dadurch-durch/>
33. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/satzverbindung-modal-ohne-dass-ohne/>
34. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/satzverbindung-adversativwaehrend-aber-demgegenueber/>
35. <http://www.deutschegrammatik20.de/der-einfache-satz/verberganzungen-v-art-und-weise-modale-ergaenzungen/>
37. <http://www.deutschegrammatik20.de/wortposition/wortposition-temporal-kausal-modal-lokal/>
38. <http://www.deutschegrammatik20.de/komplexer-satz/satzverbindung-kausal-weil-denn-wegen/>
39. <http://www.deutschegrammatik20.de/adjektiv/adverb/modale-adverbien/>
40. <http://www.deutschegrammatik20.de/adjektiv/adverb/satz-adverbien/>
41. Web-Saytlar:
42. www.kurier.at
43. www.fuldauerzeitung.de